

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

**MASOFA –
U QIRG'OQDAN
BU QIRG'OQQACHA**

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2023-yil 24-noyabr, №47 (3057)



BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI



4-5

**ENG
ILG'ORLAR
SARALANMOQDA**



6

**YOSHLARIMIZ
QIT'A MIQYOSIDA
BIRINCHI**



18



“VATANPARVARLAR” BOG’I FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Termiz shahrida “Vatanparvarlar” harbiy-vatanparvarlik bog’i foydalanishga topshirildi. Ushbu maskan Prezidentimizning joriy yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida barpo etildi.

Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat g‘oyasi atrofida birlashtirish hamda Vatan himoyachilarini tarbiyalashda uzviylikni ta’minlashga xizmat qiluvchi bog’ning ochilish marosimida Surxondaryo viloyati hokimi Ulug‘bek Qosimov, Janubiy operativ qo‘mondonligi boshlig‘i polkovnik Po‘latjon Sativaldiyev, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, harbiy xizmatchilar, nuroniylar hamda yoshlar ishtirok etdi. Tadbir davomida bog’ni bunyod etishda faol ishtirok etgan bir guruh harbiy xizmatchilarga sovg‘alar topshirildi.

Shahar markazidagi tashlandiq bo‘lib yotgan hududda qad rostlagan bog’ harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. 3.8 gektar maydonda barpo etilgan mazkur bog’ vatanparvarlik, madaniy hordiq chiqarish, sport va ma’naviy ozuqa hududlariga ajratilgan. Umumiy o‘lchamida, bu yerga

keluvchilarning maroqli va mazmunli dam olishlari uchun barcha sharoit yaratilgan.

O‘ziga xos dizaynga ega bog‘da harbiy texnika va qurol-aslahalarni namoyish etish maydoni, harbiylashtirilgan to‘siqlar yo‘lagi, yoshlarda tezlik, kuch, epchillik, chaqqonlik, aniqlik, chidamlilik va qat’iyatlilik kabi xislatlarini rivojlantirib, jismonan sog‘lom bo‘lishga ko‘maklashadigan “Mardlar yo‘lagi”, “Workout” maydoni, mustaqillik yillarida harbiy xizmat burchini bajarishda halok bo‘lgan 28 nafar harbiy xizmatchi xotirasiga bag‘ishlangan (*mangu olov porlab turgan aylana shaklidagi xotira burchagida siymolari aks etgan*) “Qahramonlar nomi barhayot” burchagi tashkil etilgan.

Maxsus bino ichida milliy hunarmandchilik ishlari namoyish etiladigan, usta hunarmandlar yoshlarni hunarmandchilik sir-asrorlariga o‘rgatish bo‘yicha mahorat darslari o‘tkazadigan hunarmandlar markazi, “Paintball”, bolalar o‘yin maydonlari va attraksionlar, yoshlar kutubxonasi, o‘q otish tiri, Book-cafe, skalodrom, ot maneji, blindaj ko‘rinishidagi kafe, kartodrom (*karting*), bouling markazi, jang maydonidagi blindajlar qad rostlagan.

Bog‘ning boshqa dam olish maskanlaridan farqi shundaki, bu yerda yosh avlod qalbida milliy ruhni ulg‘aytib, ularning ma’naviyatini yuksaltirish uchun barcha sharoit muhayyo qilingan. Atrofi ko‘kalamzorlashtirilgan ko‘rkam “Yashil makon” barpo etilgan.

III darajali serjant
AKBAR AHMEDOV
 Termiz garnizoni



JANGOVAR

TAYYORGARLIK SIFATI YANADA OSHADI

Toshkent harbiy okrugida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun maxsus bo'linmalar mutaxassislarini tayyorlash markazining tantanali ochilishiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.



Tantanali tadbir avvalida mudofaa vazirining harbiy xizmatchilarga yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi. Tadbirida mudofaa vazirining o'rinbosari polkovnik Qobiljon Tursunov, mudofaa vazirining maslahatchisi – vazirlik Faxriylar ishlari bo'yicha markaziy kengash raisi Abubakir Navro'zov, Qurolli Kuchlar faxriylari va boshqalar mamlakatimizda kuch tuzilmalarining jangovar tayyorgarlik obyektlari va o'quv-moddiy bazasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani maxsus bo'linmalarining jangovar tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Qayd etilganidek, qisqa davrda maxsus bo'linmalarining jangovar shayligi takomillashtirildi. Professional armiyalar tajribasi asosida maxsus bo'linmalarining jangovar tayyorgarligi, askarlarni saralash va sinov qabul qilish tartibi mutlaqo o'zgartirildi. Ayrim yo'nalishlarda mutaxassislarimiz xalqaro miqyosda yuqori salohiyatga ega ekanini nufuzli musobaqalarda isbotlamoqda. So'nggi ikki yilda mutaxassislarimiz Amerika Qo'shma Shtatlarida o'tkazilgan "Eng ilg'or jangchi", Buyuk Britaniyada "Kembrij patruli", Pokistonda "Jamoat ruhi"

musobaqalarida faxrli I va II o'rinlarni hamda yaqinda Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan "Xalqaro ilmiy jangovar tayyorgarlik" musobaqasida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritgani buning yaqqol misolidir.

Tadbir doirasida 2023-yil Mudofaa vazirligi qo'shinlari o'quv markazlari o'rtasida "Men g'olib!" shiori ostida o'tkazilgan "Eng ilg'or o'quv markazi" ko'rik-tanlovi hamda Koreya Respublikasida maxsus bo'linmalar o'rtasida bo'lib o'tgan "I xalqaro ilmiy jangovar tayyorgarlik" musobaqasida kuchli bilim va amaliy ko'nikmalarni

ko'rsatib, umumjamoa hisobida faxrli 1-o'rinni egallagan harbiy xizmatchilar pul mukofoti, diplom, kubok va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shundan so'ng mehmonlar ramziy tasmani kesib, markazda yaratilgan zamonaviy sharoitlar bilan yaqindan tanishdi hamda "Chirchiq" umumqo'shin poligonida maxsus bo'linmalarining taktik harakatlarini kuzatdilar.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV**

MASOFA — U QIRG‘OQDAN



Toshkent harbiy okrugi va panton ko‘prik vzvodi shaxsiy tarkibi “Suv to‘siqlaridan o‘tish va xavfli yo‘nalishlarda kechuvni tashkillashtirish” mavzusida majmuaviy maxsus-taktik o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazdi. Unda harbiy xizmatchilarga jangovar harbiy texnikalarni soy va daryodan tez fursatda olib o‘tish uchun panton ko‘prik qurish vazifasi yuklatildi.



BU QIRG'OQQACHA



Dastlab muhandislik bo'linmalariga Sirdaryo ustiga panton ko'prigini qurish va saqlab turish vazifasi yuklatildi. Belgilangan hududga yetib kelgan harbiy xizmatchilar komendantlik xizmatini tashkil etib, hudud mudofaasini ta'minlash, panton kechuvini qo'riqlash va havo hujumidan mudofaa qilish choralari ko'rildi.

Shundan so'ng quruqlikdagi qo'shinlarning daryo ustidan kechuvini amalga oshirish uchun qirg'oqning qulay joyi tanlandi. So'ngra daryoning chuqurligi, oqim tezligi, suvga kirish va chiqish joylari, qirg'oq tagining xususiyatlari aniq tekshirilib, razvedka ishlari amalga oshirildi hamda undan o'tish mumkinligiga ishonch hosil qilindi. Hisob-kitoblarga ko'ra, daryo ustida sun'iy ko'priq hosil qilish uchun 30 ga yaqin panton kerak bo'lar ekan. Vzvod komandirining nazorati va aniq ko'rsatmalari ostida panton bir-biriga biriktirilib, ko'priq taxometr usulida tiklandi. Uzunligi 125 metrli 60 tonna yuk ko'tarish imkoniyatiga ega bo'lgan ko'priq qisqa vaqt ichida qurib bitkazildi. Foydalanish uchun shay holga keltirilgan ko'priq ustidan jangovar bo'linmalarning shaxsiy tarkibi, qurol-aslaha va harbiy texnikalar olib o'tildi. Jarayon bilan bir vaqtda joylarda va harakat vaqtida ZU-23-2 qurilmasi yordamida shartli dushmanning havodagi nishonlari yakson qilinib, kechuv xavfsizligi ta'minlab berildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu harakatlar mobaynida harbiy xizmatchilardan texnikalar orasidagi belgilangan masofaga qat'iy amal qilinishi talab etildi.

Shuningdek, shartli dushmanni chalg'itish maqsadida panton ko'priq yordamida texnikalarni yakka tashish ishlari ham amalga oshirildi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
«Vatanparvar»

ENG ILG'ORLAR SARALANMOQDA

Bugun dunyoda kuzatilayotgan turli xavf-xatarlardan kelib chiqib, havo mudofaasini yangi pog'onaga ko'tarish, uchuvchisiz qurilmalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi oliy aviatsiya bilim yurtida mudofaani mustahkamlash va harbiy salohiyatni yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.



Ushbu ta'lim muassasasi 1994-yilda Jizzaxda (*Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti nomi bilan*) tashkil etilgan. Keyinchalik davlatimiz rahbari 2018-yilda Qarshi tumanidagi Xonobod harbiy aerodromida bo'lganida harbiy uchuvchilar tayyorlashda ushbu aerodrom imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha takliflar bildirgandi. Shu asosida oliy harbiy aviatsiya bilim yurti 2019-yilda Qarshi shahriga ko'chirildi va hozirgi nomga ega bo'ldi. O'quv va mashg'ulot binolari, zamonaviy trenajyorlar, uskunalar, ilg'or axborot texnologiyalari bilan to'liq jihozlandi. Bu kursantlarga Xonobod aerodromida harbiy havo kemalarini boshqarish va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mashg'ulotlar olib borish hamda bevosita o'quv poligonlarida ishtirok etish imkonini berdi. Parvozga tayyorgarlik markazi va axborot resurs markazi, 4 ta mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha o'quv laboratoriyalari harbiy uchuvchilarning professionallik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. 120 o'rinli madaniyat markazi, yotoqxona, oshxona, saf maydoni va sport shaharchasi kursantlar ixtiyorida.

Mazkur bilim yurti havo mudofaasini yangi pog'onaga ko'tarishda munosib hissa qo'shmoqda. Xorij muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari asosida tajriba tariqasida uchuvchisiz qurilmalar yig'ish yo'lga qo'yilmoqda.

Ma'lumki, joylarda Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida professor-o'qituvchilar, tinglovchi va kursantlarning harbiy va kasbiy mahoratini oshirish maqsadida "Eng ilg'or oliy harbiy ta'lim muassasasi" ko'rik-tanlovi o'tkazilmoqda. Oliy aviatsiya bilim yurtida ham mazkur tanlovning joriy yilgi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va tarbiyaviy ishlar holati, shuningdek o'tgan o'quv yili yakunlari bo'yicha ta'lim jarayonlarida erishilgan yutuqlar natijalari tekshirildi.

Dastlab bilim yurti doimiy tarkibining va kursantlarning tayyorgarlik darajasi o'rganildi. O'quv, uslubiy, ilmiy va ilmiy tadqiqot hamda tarbiyaviy ishlar holati tanlov nizomiga muvofiq maxsus komissiya tomonidan o'rganib, baholandi.

Ro'ziqul OCHILOV,
«Vatanparvar»

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida "Eng ilg'or kadr organi" va "Eng ilg'or harbiy-kasbiy saralash organi" ko'rik-tanlovlarining yakuniy bosqichi o'tkazildi.

KADR ORGANI MUTAXASSISLARI BELLASHDI



Muallif suratga olgan



Soha vakillarining kasbiy mahorati, jismoniy qobiliyatini sinovdan o'tkazish, istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadi ko'zlangan bellashuvda harbiy okruglar, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari hamda Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonliklaridan saralangan mutaxassislar o'zaro kuch sinashdi.

Dastlab ishtirokchilar "My test" tizimli ta'minot dasturi orqali 100 ta savoldan tashkil topgan test sinovini topshirdi. 60 ta savoldan iborat test sinovida esa yurt posbonlarining intellektual salohiyati,

IQ darajasi aniqlandi. So'ng harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi yosh (*jismoniy sog'lomlashtirish*) guruhi hisobga olingan holda sinovdan o'tkazildi. Unda 100 metr va 3 kilometrga yugurish, turnikda tortilish me'yorlari bajarildi.

"Chirchiq" umumqo'shin dala-o'quv maydonida o'qotar qurollar va jangovar mashinalardan o't ochish kursi talablariga muvofiq, tanlov ishtirokchilari otish tayyorgarligi bo'yicha o'quv otish mashqini bajardi. Oxirgi shartda ishtirokchilarning maxsus tayyorgarligi hujjatlarni amaliy ishlab chiqish natijalari bo'yicha baholandi. Bunda ularning


axborot texnologiyalarini bilish darajasi, kompyuter savodxonligi, hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirishga oid ko'nikma va malakasiga alohida e'tibor qaratildi. Nazariy va amaliy shartlarda tanlov ishtirokchilari qayd etgan har bir natija hakamlar hay'ati tomonidan shaffof, adolatli va xolisona baholandi.

– Ushbu tanlovda o'tgan yili 2-o'rinni qo'lga kiritgan edim, – deydi tanlov ishtirokchisi, mayor Elyor Salayev. – Bu yil oliy o'rinni egallashni maqsad qilib keldim. Avval axborot texnologiyalari yo'nalishida quyi natija ko'rsatganim sababli bu gal puxta tayyorlanib, "a'lo"

baho oldim. Mazkur musobaqa nafaqat bellashish, balki hamkasblarimiz bilan o'zaro ilg'or tajribalarni almashish, eng so'nggi yangiliklar bilan tanishish, do'stona muhitni mustahkamlashga xizmat qilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, har ikki tanlovda yuqori o'rinlarni egallagan g'oliblar dekabr oyining ikkinchi yakshanbasida – kasb bayrami kunida taqdirlanadi.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
«Vatanparvar»**



VATAN

DEGAN KAM BO'LMAS!

Kasbim taqozosi tufayli ko'p insonlar bilan uchrashdim, hamsuhbat bo'ldim. Hayotini yurt taqdiri bilan chambarchas bog'lagan jasur kishilarni tanidim, bildim. Har biri bir dunyo, bir olam.

Vatan deganda kaftini yuragiga qo'yadigan inson... Siz shunday insonni ko'rganmisiz? Men uni ko'rdim! Termizga xizmat safarida ana shunday oliyjanob inson bilan ko'rishish, tanishish nasib etdi. Shu uchrashuvda "yurgan daryo..." deganlarining ma'nisini yanada teranroq angladim.

Katta serjant Xurshid Hamdamov. U 2016-yilda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti farmoni bilan davlatimizning yuksak mukofoti – "Jasorat" medali bilan taqdirlandi. Ushbu yuksak mukofotni 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan qutlug' sanada amaldagi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qo'lidan qabul qilish baxtiga muyassar bo'ldi.

Uning Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilayotganiga ham yigirma bir yildan oshib boryapti. Salmoqli muddat. Shu yillar ichi uning mudofaa vaziri nomidan olgan faxriy yorliqlarining o'zi yuzdan oshadi! Ana shu oddiygina e'tirofdan ham Xurshidning o'zi tanlagan sharaflari yo'lni munosib bosib o'tganini anglab olasiz. Bu kamdan kam insonlarga nasib etadi.

Qurolli Kuchlarning eng nufuzli ko'rik-tanlovida bir necha bor g'olib bo'ldi. E'tibor bering-a: "Eng ilg'or serjant" nominatsiyasi g'olibi, "Eng ilg'or mergan" nominatsiyasining ikkinchi o'rin sohibi, 2012 – 2013-yillarda ketma-ket "Eng ilg'or guruh komandiri" deya e'tirof etildi.

2014-yili xizmat burchini o'tash chog'ida uch shubhali shaxsni qo'lga oldi. Va mudofaa vaziri tomonidan "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Uning sportda erishgan yutuqlari ham tahsinga sazovor. Yigitning ta'rifini eshitgan armiya sport klubi oliy harbiy ta'lim muassasasiga kirib o'qish imkoniyatini yaratgan holda o'z saflariga taklif qilgan edi. "Ba'zan shu taklifni qabul qilmay yanglishdimmi, deya o'ylab qolaman. Oliy ma'lumotli bo'lishga nima yetsin. Biroq o'tgan ish o'tdi, ketdi. Uni orqaga qaytarib bo'lmaydi. Baribir o'tgan kunlarimdan roziman, ko'nglimda armon, pushaymonlik hislari yo'q".

Vatan deganda kaftini yuragi ustiga qo'ygan erkak!

Men har doim yurt himoyachilari orasida shunday insonlar borligiga ishonar edim. Bugun ulardan biri haqida yozish sharafiga muyassar bo'ldim.

Uni tingladim. Sizga ham ilindim. Bu uning hikoyasi. Aslida hayotining yigirma bir yillik hikoyasi bir qancha sahifalarni to'ldiradi. Biz imkon darajasida uni bir sahifaga joylashga harakat qildik.

Vatan deganda kaftini yuragi ustiga qo'ygan yurt himoyachisi!

Keling, uni o'zi gapirsin, o'zidan eshitaylik:

Buxoro viloyati Peshku tumani Allayor qishlog'ida tug'ildim. Oilada sakkiz farzand ulg'aydik. Ular orasida yagona harbiy xizmatchi men. Ota-onam oddiy insonlar.

1999-yili muddatli harbiy xizmatga chaqirildim. Surxondaryoda Qurolli kuchlarimizning eng oldi harbiy qismida xizmat o'tadim. Oson emas edi, ammo ko'nglimdagi, orzulaganimdek bir muhitga tushgandim. Uyidan olisga chiqmagan sodda qishloq bolasi uchun olamshumul o'zgarish yasagan edi, armiya hayoti.

2000-yil yozining so'nggi oyi, kuz oylari juda tashvishli kechdi.

Janubiy hududlarimizga suqilib kirgan jangarilarga qarshi kurashda bir nechta Vatan himoyachilari halok bo'ldi. Bu meni qo'rqitdi...mi? Yo'q. Bu qo'rquv emas edi. Yosh edim, ichimdagi xavotir, g'alayonlarni birovga tushuntira olmasdim. 2001-yil may oyida ota-onam bag'riga qaytdim. Biroq armiyadan ko'ngil uzolganim yo'q.

Takror aytaman, yosh edim. Birov yo'l-yo'riq ham ko'rsatmabdi. O'zim ham tortinchoq bo'lganman. Muddatli harbiy xizmatdan shartnoma asosida qolib, xizmatni davom ettirish mumkin ekan. Taqdir ekan, yana Qurolli Kuchlar safiga qaytish nasib etdi. Askarlar bilan ishlaganda, yoshlar biror maslahat so'rasa, o'sha olis yoshligim, g'o'rligimni eslab, ularga bajonidil yo'l-yo'riq ko'rsataman, maslahatlar beraman.

Harbiy qismimiz Qurolli Kuchlarning eng oldi jamoasi sanaladi, tabiiy. Biroq shunga yarasha xizmat burchini o'tashning ham o'ziga xos murakkabliklari bisyor. Yozning jaziramasini-yu, qish qirovli kunlarda uch oylab tog'-u toshlar orasida yurish o'zi bo'lmaydi. Oila davrasini sog'inasan, bolalaring ko'z o'ngingdan o'ta boshlaydi, uy taomlarini qo'msaysan, buyog'i vazifang ham oson emas. Bular tabiiy tuyg'ular. Inson ana shunday tuyg'ulari borligi uchun ham inson sanaladi. Ana shunday damlarda sizga kuch beradigan eng oliy tuyg'u ham bor. Bu Vatan muhabbati! Sen uning himoyasi, aziz xalqing tinchligi uchun tog'-u toshlarsan, behuda yurganing yo'q! Farzandlaring, otang, onang uning bag'rida!

2016-yil hayotimda o'chmas iz qoldirdi. Kamtarona xizmatlarim davlatimiz tomonidan yuksak darajada e'tirof etilib, "Jasorat" medali bilan taqdirlandim. Bu yuksak mukofotni mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qo'lidan olish esa unutilmas quvonchli, faxrli lahzalar bo'lib qoldi.

Qurolli Kuchlar safida ko'p yillar xizmat qildim. Tengdoshlarim deyarli qolmadi. O'tgan davr ichida eslashga arziqli damlar ham ko'p bo'ldi. Vatan degan kam bo'lmas ekan. Uch farzandimiz bor. Turmush o'rtog'im Naziraxon bolalar bog'chasida ishlaydi.

Qarang, davlatimiz harbiy xizmatchining o'zigagina g'amxo'rlik qilish bilan cheklanib qolmay,

farzandlarimizni ham unutmagan yo'q. O'g'lim Humoyunmirzoning O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasining tinglovchisi bo'lishida ana shu g'amxo'rlik mujassam.

2018-yili hayotimizda yana bir quvonchli voqea yuz berdi. Oilamiz uchun uch xonali uy berildi. Shunchaki, uying o'zi berilsa ham rozi edik. Yangi uy zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan holda bizga tantanali tarzda topshirildi.

Ayting, bunday g'amxo'rlikka qanday munosib javob bermaslik mumkin?! Seni oila a'zolarining ham unutmaydigan Vatanni sevmaslik, unga sidqidildan xizmat qilmaslik mumkinmi?! Tanimda jonim bor ekan, yurtim farovonligi, tinchligi uchun xizmat qilishni sharaf deb bilaman. Buni farzandlarimga ham uqtirishdan charchamayman. Bugun nimagaki erishdim bari yurtimga bo'lgan muhabbatimdandir.

Vatan deganda kaftini yuragi ustiga qo'yadigan erkak!

U bilan suhbatimiz harbiy qism kutubxonasida kechdi. O'g'illari Hasanbek va Husanbeklar haqida gapirganida yuzlari yanada yorishib ketdi. Gap-so'zlaridan harbiy xizmat allaqachonlar hayoti mazmuniga aylanib ketganini his qilish qiyin emas. Shuni bilganim holda savol berishdan o'zimni tiyib tura olmadim:

– Xurshid, harbiy xizmat, ayniqsa sizning zimmangizdagi xizmat anchagina mashaqqatli. Yillar davomida hayotingizni katta qismi kechgan dasht-u dalalar, tog'-u toshlar, ularning har bir giyohi, og'ochlari jon qadar aziz bo'lib qoladi. Bir kuni bularni tark etib, haqqingiz bo'lgan dam olishga chiqish fursati ham yaqin qoldi. Bular haqida Siz ham o'ylayotgandirsiz? Ko'nglingizdan nimalar kechyapti?

– Ha, o'ylayapman, ammo javob bera olmayman, bu men uchun juda-juda og'ir. Tomog'imga nimadir tiqilib kelayotgandek... Ko'zyoshimga guvoh bo'lishingizni istamayman...

Vatan deganda kaftini yuragi ustiga qo'ygan Erkak! Izdoshlaringiz safi kengayaversin.

Inobat IBROHIMOVA,
«Vatanparvar»



CHO'L BAG'RIDA TUNGI MASHG'ULOT

Cho'llarning tabiiy iqlim sharoiti odamning yashashi va faoliyati uchun qulay bo'lmagan hudud sanaladi. Ammo ko'plab zamonaviy urushlar bugungi kunda cho'l hududlarida olib borilayotgani qo'shinlarning sahroda harakat qilishi va jang olib borishining o'ziga xosliklarini tadqiq etishni taqozo etadi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tashabbusi bilan "Nukus" umumqo'shin poligonida bir necha kun davomida tungi sharoitda ko'rgazmali mashg'ulotlar tashkil etildi. Cho'l hududlarida jangovar harakatlarni olib borish, qo'shinlarning notanish hududlarda joylashuvi hamda har tomonlama ta'minotini tashkil etish masalalariga qaratilgan ko'rgazmali o'quv mashg'uloti ilmiy-amaliy anjumandan boshlandi. Unda cho'l sharoitida jangovar harakatlarga tayyorgarlik

ko'rishning o'ziga xos tomonlari muhokama qililib, dunyoda sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlarning cho'l hududlaridagi maxsus harakatlari chuqur tahlil etildi. Tadbirida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov, okrug harbiy xizmatchilari, Mudofaa vazirligiga qarashli oliy harbiy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati kuch tuzilmalari vakillari ishtirok etdi.

Ilmiy-amaliy anjumanda cho'l sharoitida mudofaa jangini olib borishda bo'linmalarni tayyorlashning o'ziga xosliklari, shaxsiy tarkibning psixologik zo'riqishlarini yechish, cho'lida harakatlanish va jang olib borish uchun texnikalarni tayyorlash, moddiy-texnik ta'minotni tashkil etish, maxsus qo'shinlarni qo'llash hamda aloqani tashkil etish, artilleriya imkoniyatidan foydalanish xususida mutaxassislar ma'ruzalari tinglandi.

Dunyo bo'ylab cho'l hududlarida o'tkazilgan jangovar operatsiyalar va ularning natijalari chuqur tahlil etilib, tadqiqot natijalari

ta'minot masalalarini yo'lga qo'yish, o'q-dori va qurollarni saqlash, hududga mos ravishda niqoblanishni tashkil etish, oziq-ovqat zaxirasini yaratish, texnikalarni yoqilg'i-moylash ashyolari bilan ta'minlash, harbiy xizmatchilarga tibbiy yordam ko'rsatish, dala sharoitida ovqat tayyorlash hamda boshqa masalalarni qamrab olgan hudud bo'linma doimiy joylashgan joyidan uzoqda, notanish hududda bemalol joylashishi va faoliyatini davom ettirishi mumkinligini ko'rgazmali tarzda namoyish etdi.

Ishtirokchilar dala sharoitida ovqat



atroflicha muhokama etildi. Cho'l sharoitida mudofaa jangini tashkil etish bo'yicha zarur taklif va tavsiyalar berildi.

Ko'rgazmali mashg'ulot uchun tashkil etilgan o'quv nuqtalarida ishtirokchilar cho'l sharoitida tabiiy va sun'iy vositalardan foydalangan holda muhandislik talablari asosida keng maydonda jihozlangan motoo'qchi batalyonining jamlanish hududi bilan yaqindan tanishishdi. Shaxsiy tarkib va texnikalarni joylashtirish, barcha turdagi

tayyorlash, kiyim-kechak ustaxonasi, hammom majmuasi, omborxonalar jihozlanishi, texnik ta'minotni tashkil etish masalalari, bir vaqtning o'zida dala sharoitida 20 ta texnikaga ommaviy yonilg'i quyish hududining faoliyati bilan tanishtirildi.

Podpolkovnik Timur NARZIYEV, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati boshlig'i

✓ KO'NIKMA



TIBBIY BILIMLAR MUSTAHKAMLANMOQDA

Joriy yilning sentabr oyidan Nukus harbiy gospitali qoshida tibbiy mutaxassislikka ega bo'lmagan harbiy xizmatchilar "Taktik mediklar" o'quv dasturi bo'yicha ta'lim olishni boshlagan edi. Ayni vaqtda o'quv yili bo'yicha boshlangan uchinchi mavsum nazariy va amaliy mashg'ulotlarida interfaol usullardan keng foydalanilayotgani hamda zamonaviy tibbiy maketlar qo'llanilayotgani ahamiyatlidir.

Taktik tibbiyot tushunchasi bevosita jang maydonida ko'rsatiladigan, askarning hayotini saqlab qolish va hayoti uchun xavfli holatlarni bartaraf etish hamda nogironlikka olib keluvchi oqibatlarining oldini olishga yo'naltirilgan tibbiy chora-tadbirlarni o'zida majussam etadi.

Jangda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning samaradorligi, albatta jarohatlanganga yordam ko'rsatish vaqti va sifatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Chunki, jarohatlanish, zararlanish yoki yaralanishda birinchi daqiqalardan ko'rsatilgan tibbiy yordam tufayli

inson sog'lig'ini saqlashga erishish mumkin. Shuning uchun ham Mudofaa vazirligi qo'shinlarida har bir harbiy xizmatchining o'ziga va safdoshlariga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish amallari va usullarini mukammal bilishlariga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Harbiy xizmatchilarning bu boradagi bilim va ko'nikmalari mustahkamlanib, ular bilan alohida mashg'ulotlar tashkil etilmoqda. Tibbiy mutaxassislikka ega bo'lmagan harbiy xizmatchilarning tibbiy tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish, jang maydonida o'ziga yoki yaralangan

safdoshiga tibbiyot nuqtayi nazaridan to'g'ri va sifatli yordam ko'rsatishni o'rgatish maqsadida 2022-yilda Nukus harbiy gospitali qoshida Taktik-tibbiy tayyorgarlik bo'limi ochildi va "Taktik medik (*paramedik*)lar" o'quv dasturi bo'yicha 21 kunlik o'quv kurslari joriy etildi. Bugungi kunga kelib ushbu dastur bo'yicha yuzlab harbiy xizmatchilar tayyorlanib, tibbiyot sohasi bo'yicha kerak bo'ladigan bilim va tajribaga ega bo'lishdi.

Darvoqe, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlarini bajarish uchun harbiy xizmatchilar tomonidan odam organizmining tuzilishi va hayotiy muhim a'zolarining joylashishini bilishi katta ahamiyatga ega. Yaradorga qanday usulda tibbiy yordam berish, uning qaysi ichki a'zosi zararlanganini taxmin qilish va jang maydonidan qanday usulda olib chiqish uchun bu bilimlar, albatta doim kerak bo'ladi.


Ta'kidlash joizki, bugun dunyo miqyosida olib borilayotgan jangovar

harakatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jangda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning yangicha usul va uslublarni topishga, harbiy xizmatchilarning o'ziga o'zi tibbiy yordam bera olish ko'nikmasini oshirishga talab ortib bormoqda.

Nukus harbiy gospitalida tahsil olayotgan harbiy xizmatchilar bilan dastlab odam anatomiyasi, fiziologiyasi o'rganilib, shundan so'ng jang maydonida ehtimoliy yaralanish va zararlanish hamda jabrlanganga birinchi tibbiy yordam berishning turli usul va uslublari mukammal o'rgatiladi. Jangda yaradorlarni olib chiqish, evakuatsiya qilish bo'yicha zarur bilimlar boyitiladi. Ta'lim dasturi yakunida har bir tinglovchi o'zlashtirgan mavzular bo'yicha 6 soatlik nazariy va amaliy imtihonlarni topshirib, tegishli sertifikatga ega bo'ladi.

Kichik serjant Abdullajon UMARALIYEV

JASUR O'G'LOH HAQIDA



UCH HIKOYA

Ko'pdan bu xonadonga borish haqida o'ylab yurardim. Yillar o'tsa-da, hech yo'lim tushmagan edi. Kuzning so'nggi kunlari Vatan uchun aziz jonini tikkan shahidimizning mo'tabar onasi ziyoratiga borish nasib etdi. Kapitan Ulug'bek Hatamov, katta leytenant Abduvali Bekmirzayev, katta serjant Xurshid Hamdamovni Manzura aya xushnudlik bilan kutib oldi.

Termiz shahrining biqinida joylashgan fayzli bir mahalla. E'tiborli tomoni mahalla hamon Muhiddin Eshtemirov nomi bilan yuritilgan ekan. Chunki joy nomlarini kishilar nomi bilan nomlash amaliyoti to'xtatilgan edi. Nima bo'lganida ham bu bizni mamnun etdi.



Kichik serjant Ilyos QODIROV

OTA

Shunday ulug' bir Otani bilaman. U mashhur emas, katta amal egasi ham emas. U oddiy bir ota, O'G'IL o'stirgan ota. Vatan sarhadlarini g'animlardan himoya qilayotib, qahramonlarcha halok bo'lgan surxondaryolik serjant Muhiddin Eshtemirovning otasi.

...Muhiddin so'nggi manzilga kuzatilayotgan kun Otasi shahidimizga ehtiromini bildirib kelgan harbiy xizmatchilarga qarab shunday dedi: "...g'anim bizni o'lim bilan qo'rqita oladimi?! Vatanga, armiyaga kerak ekan, ana, ikkinchi o'g'lim – ukasi voyaga yetgan, akasining o'rniiga boradi!"

Shunday kun kelganida otaning yuragi yondi. Uzoq jimlikdan so'ng ukaga – kenja o'g'liga oq yo'l tiladi. U erkak edi, erkakning burchi yurt qo'rish ekanini yaxshi bilardi.

ONA

U to'qqiz farzandni dunyoga keltirdi. Besh o'g'il, to'rt qiz. Hammalari allaqachonlar har tomonga uchirma bo'lishdi. Ona sohibi uzr o'g'li bilan qoldi. Shuning uchun kenja farzandi yana uning yoniga qaytdi. Qutlug' xonadonda yana bolalar kulgusi yangray boshladi, gavjumlashdi.

Hovli to'rida alohida kirib-chiqiladigan xona bor. Chog'roqqina xona ammo ziyoratchisi ko'p. Bu Muhiddinning xonasi. Ha, ha, o'sha, yuksak tog'lar bag'rida kechgan jangovar harakatlarda yurti uchun jonini nisor qilgan jangchi, serjant Muhiddin Eshtemirov.

Bu Manzura ayaning hikoyasi.

...U tongda tug'ilgan edi.

Atrofidan odam arimasdi. Talabalik yillari paxta terimiga chiqqanida ortidan totli taomlar tayyorlab borardik. Qizlarga ilinardi. Shu sababmi qizlar ham unga parvona edilar.

To'qqiz farzandni tarbiyalab o'stirdik. Urug'chilik ilmiy-tekshirish institutida laborant bo'lib ishladim. Intizom qattiq talab qilinardi. Uyda ham bolalarning tashvishi, pishir-kuydir, kir-chir... Sahar turib non yopardim. Asli bolalikdan mehnat ichida o'sdim. Bugun o'tgan kunlardan gapirsam, nabiralaram ishonmaydi, robot ham buncha ish qilolmaydi, deyishadi.

Pensiyaga chiqdim. Endi avvalgidek yelib-yugurmas edim. Qizlar ulg'aydi, kelinlar keldi... O'sha paytlar pensiya pochtdan tarqatilar edi. Ertalabdan, avvalo diydor, pensionerlar pochta oldiga yig'ilib, o'tgan-ketgandan gurunglashib o'tirardi. O'sha kuni negadir hech qayerga sig'may ketaverdim. Hovliga chiqdim, ko'chaga... Ichimdagi g'ashlik tarqamadi. Pochta tomonga ketdim, teng-to'shlar bilan gaplashsam, ko'nglim yozilarmikan? Bu yerda qancha o'tirganimni bilmayman, uyga qaytgim kelib, yo'lga tushdim. Birpas yurib qarasam, homilador kelinim harsillab men tomonga kelyapti.

– Tezroq uyga borarkansiz, akam gospitalga tushibdi, faqat xavotir olmas ekansiz...

Razm solib qarasam, ko'zlari qizargan, yig'labdi. Yuragim qalqib ketdi.

– Gospitalda bo'lsa, nega yig'lading?

– Yig'-yig'laganim yo'q, – dedi ovozi o'zgarib.

Nimadir bo'lgan. O'pkam og'zimga tiqilguday uy tomon chopdim. Hovlida tumonat odam, harbiylar. Muhiddin, dedim-u, ko'z oldim qorong'ilashib ketdi... Bolamning sovuq diydorini ham ko'rmadim, ko'rsatmadilar...

Bir necha kun bo'lgan ekan. Jasadini qidirishga akasi Nuriddin ham boribdi. Bolam bu og'ir g'amni yolg'iz o'zi qanday ko'targan ekan?!

O'shanda o'z g'amim bilan bo'lib boshqalarga ham oson bo'lmaganini anglamaganman. "Voyenkom" Anvar ham bu xabarni bizga qanday yetkazishni bilmay qiynalganini keyin eshitdim. Bunday achchiq xabarni ota-onaga yetkazish har qanday inson uchun ham og'ir...

Uni eslamagan kunim yo'q. Ayniqsa, so'nggi bor xayrlashganimiz...

Oxirgi marta uyga kelganida qandaydir mashqi pastroq ko'rindi, rangi oqargandek. Savolimga "hammasi yaxshi", deb qo'yaqoldi. Ketayotganida ortidan kuzatib chiqdim. Darvoza oldida meni mahkam bag'riga bosdi va ketdi... Ortidan qarab turdim, bir marta qayrilib boqmadim, orqasiga qaramay ketdi, keeetdi... Hazilkash, quvnoq edi. Hamma vaqt kulib, kuldurib xayrlashardi. O'sha kuni kulmadi, orqasiga qaramay ketayotgani ko'z o'ngimda qoldi. Ko'proq shu holi, menga yana bir qayrilib boqmay ketganini eslayman. Tushlarimda ham

shu holini ko'raman.

Zarabog'dagi qabristonga (*Sherobod tumani*), bobolari yoniga qo'ydik. Besh yil avval otasi olamdan o'tdi. Hozir ikkovlari yonma-yon yotibdi.

Uning o'rniini ukasi Jasur egalladi. Qanchalik og'ir bo'lsa ham o'g'limning ra'yiga qarshi bora olmadim. Ammo bir kuni qo'mondon Sobirov kelib xabar olganlarida chidab turolmadim. U kishi: "Opa menga biror xizmatigiz bormi?" deganlarida aytdimki: "Mumkin bo'lsa, ikkinchi o'g'limni boshqa joyga oling, Sariosiyo desa yuragim kuyadi..." dedim. Omon bo'lgur, iltimosimni o'sha kuniyoq bajardi.

Yillar yeldirim. Bugun Jasur ham iste'foga chiqqan. Bolalari bilan bag'rimda.

JASUR

Men besh aka-ukaning eng kichigi. To'rt akaning ukasi holi qanday bo'lishini bilsangiz kerak. Birovini aytganini qilmay ko'r-chi... Mol-holni zimmamga yuklab qo'yдилar. Kamiga sport bilan shug'ullanishim kerak. Muhiddin akam meni nazorat qilardi, o'zi toza-ozoda yurardi, mendan ham talab qilardi, "molga qarash qiyin ish, ammo bu degani dasturxon boshida ham sendan molxonaning hidi kelib tursin, degani emas", deb hazil-chin tanbeh berardi.

Akamning bor-yo'g'i ikkita qo'shig'i bor edi: "Chiroyli qiz", "Bahor fasli". Oqshomlari darvoza tashqarisida gitarasini ting'illatib, shularni aytardi. Mahallaning yosh-yalanglari, kelin-kepchik atrofiga yig'ilib kelardi. Akamni hammalari yaxshi ko'rar edi, mahalladosh akalarimiz kelinchaklarini undan qizg'anmas edi. Bir fayzli oqshomlar edi...

Muddatli harbiy xizmatga ketayotganimda tayinladi: "Hayotingni armiya bilan bog'la, pushaymon bo'lmaysan". Aytganini qilishga harakat qildim. Chirchiqda harbiy xizmatni o'tadim. Bir yil-u uch oy bo'lganida menga ta'til berishdi. Hech kimga ta'til berilmas edi. Menga berildi! "Sen muddatli harbiy xizmatdan keyin shartnoma asosida xizmatni davom ettirmoqchisan, olti oygacha uyga borolmasligingni hisobga olib, senga ta'til berishni lozim topdik". Bu ta'tilni shunday izohlashdi. Sevinib ketdim. Hamma joyda ishim osongina bitdi, ayniqsa, endigina qo'zg'alayotgan Termiz avtobusiga meni kuzatayotgan harbiy xizmatchi birpasda joy topdi. Bu ishlar meni zarra bo'lsin hayron qoldirmabdi, shubhalantirmabdi. Termiz shohbekatida tanishlarni ko'rib quvondim. Negadir mendan ko'zlarini olib qochgandek tuyuldi. Parvo qilmadim. Uydagilarga sovg'a-salomlar oldim. Diydorni o'ylab o'zimda yo'q shodman. Mahallaga yaqin qolganda uyga tezroq borishimni, janoza borligini aytishdi. O'zimni yo'qotib qo'ydim. Janoza deganidayoq qulog'imga boshqa so'z kirmadi. Onam... deb o'yladim. Qarshimga chiqqanlarni itarib-turtib uyga chopdim. Telba bo'lgandek edim. Hammomga olib kirib, ustimdan suv qo'yдилar, azadorligimni bildirish uchun sochimni qira boshladilar, sokinlashib qoldim, ammo ichim yonardi... Bu... bu juda-juda og'ir yo'qotish...

Taqdiri shunday ekan, ko'ndik. Vaqt o'tgani sari akamning menga aytgan gaplari boshimda aylana boshladi: "Armiyada qol, xizmatigini davom ettir...". Eng to'g'ri yo'l ham aslida shu edi. Bir qarorga kelib, otamga niyatimni bildirdim. Jim bo'lib qoldi. Anchadan keyin boshini ko'tarib: "Ketasanmi?" dedi. "Ha", dedim qisqagina qilib. Rozi bo'ldi.

Taqdir ishini qarangki, aynan akam xizmat burchini o'tagan harbiy jamoaga buyrug'im chiqibdi. Safdoshlari hayrat bilan kelib, bir-bir bag'rilariga bosdi. Ular meni o'z ukalari kabi qabul qildi.

Yillar kechyapti. O'sha mash'um voqeaga ham yigirma ikki yildan oshib boryapti. Bu xonadonga ota-onamiz, biz to'qqiz farzand ortidan ko'plar kelib-ketadi. Orasida eng yo'qlovchisi ko'p, eng mehmoni ko'p Muhiddin akamdir! Shahidlar tirikdirlar, toki eslovchilari bor ekan, o'lmaydilar, degani shu bo'lsa kerak.

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

MOZIYGA QAYTIB



Taniqli adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimov bilan bo'lgan ushbu suhbat 2012-yil ustozning 80 yillik yubileyi nishonlanayotgan kunlarda yozib olingan. O'shanda savollarimizga u kishi faqat o'zigagina xos bo'lgan bosiqlik, sokinlik, mulohaza va ayni paytda chuqur muhabbat, shavq bilan javob bergan edi. Mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish komissiyasi, "Shahidlar xotirasi" xayriya jamg'armasi va "Qatag'on davri qurbonlari xotirasi" muzeyiga rahbarlik qilgan Naim Karimov o'tgan asrning 30–50-yillaridagi qatag'on qurboni bo'lgan jadidlar haqidagi tarixiy haqiqatning yuzaga chiqib, ular xotirasining e'zozlanishiga o'z hissasini qo'shgan fidoyi olimlar safining boshida turadi.



– Naim aka, Sizni XX asr o'zbek adabiyotini, ayniqsa asr boshlaridagi dalg'ali jarayonlarni, jadidlarning ma'rifatparvarlik harakatlarini chuqur o'rgangan olim sifatida xalqimiz yaxshi taniydi. Shu bois suhbatimizni o'sha davrdan boshlasak. Noyabr oyining 27-sanasi mintaqamizdagi dastlabki demokratik hukumat – Turkiston muxtoriyati tashkil etilgan kun hisoblanadi. Bu o'sha davrda dunyoning siyosiy maydonidagi katta voqea edi. Murakkab bir davrda, "millatimizning qora kunlari" (Abdulla Qodiriy)da Muxtoriyatning tashkil etilishi, uning tarkibi, ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan jihatlar haqida ma'lumot bersangiz.

– Turkiston Muxtoriyati haqida so'nggi yillarda juda ko'p yozildi. Ayniqsa, Islom universitetining hurmatli professori Saidakbar A'zamxo'jayev bu hukumatning vujudga kelish va tugatilish tarixini qunt bilan o'rganib, "Turkiston Muxtoriyati tarixi" degan kattagina kitobni yozdi va nazarimda, masalaning aksar qorong'i jihatlarini yoritib berdi. Men mushtariylarga Muxtoriyat bilan bog'liq bo'lgan voqeanigina aytib bersam.

1917-yil Fevral inqilobi ro'y berganidan so'ng chor hokimiyatining Sibir va Kavkazda joylashgan harbiy qismlari arosatda qoldi. Bu qismlarning dislokatsiya qilingan joyda faoliyat ko'rsatishi ma'nosiz bo'lib qoldi. Sibirdagi qismlar o'z lagerlarida saqlanayotgan turk harbiy asirlarini ozod qilib yubordi. Ular Turkistonga kelib, mahalliy jadidlar bilan aloqa o'rnatdilar, so'ngra Toshkent va boshqa viloyatlardagi o'qituvchilar yetishmagan maktablarda ta'lim va tarbiya ishlari bilan shug'ullandilar. Kavkazda joylashgan 10 ming askardan iborat harbiy qism esa Toshkent orqali Sibirga – asosiy dislokatsiya joyiga boradigan bo'ldi. O'sha kunlarda Muvaqqat hukumatga itoat qilishni istamagan bolsheviklar Turkistonda hokimiyatni qo'lga olish uchun yelib-yugurayotgan edi. Bundan xabardor bo'lgan Munavar qori Abdurashidxonov boshliq uch kishi Toshkentga yetib kelgan chor armiyasi qo'mondonligiga borib, ularni bolsheviklar niyatidan voqif etadi va ulardan Turkistonda milliy davlatchilikni tiklashda yordam berishni iltimos qiladi. Qo'mondonlik Turkistonda Sovet hokimiyatining o'rnatilishiga qarshi bo'lgani uchun toshkentlik istiqolchilar taklifini qabul qiladi. Ammo mazkur harbiy qism Toshkentda uch kun turishi, hokimiyatni mahalliy kuchlarga olib berib, ixtiyoridagi qurol-yarog'ning bir qismini qoldirib ketishi uchun ularga 2 million so'm yig'ib berish lozim edi. Munavvar qori sheriklari bilan Toshkent boylarini yig'ib, ularga 2 million so'mni yig'ib berishni, aks holda yaqin kunlarda bolsheviklar Turkistonda hokimiyatni o'z qo'llariga olishi mumkinligini, agar bolsheviklar g'alaba qozonsalar, mahalliy boylarning uyi kuyishi tayinligini aytadi. Ammo boylar 2 million so'm qo'ldan chiqqanidan ko'ra, bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishini afzal, deb bildilar. Shunday qilib, 1917-yil yozidagi milliy davlat to'ntarishi yoki milliy inqilob amalga oshmay qoldi.

Oradan bir necha oy o'tdi. Bolsheviklar o'z rejalarini ro'yobga chiqarish yo'lida qator siyosiy-tashkiliy ishlarni amalga oshirdilar. Ular harbiy qismlar ham tuzib, pochta va telegrafni, boshqa davlat muassasalarini o'z nazoratlariga oldilar. Shundan keyingina "Sho'roi islom" tashkiloti Qo'qonda Turkiston Muxtoriyati bayrog'ini ko'tarishga muvaffaq bo'ldi.

– **Gazetamizning mundarijasidan kelib chiqib, Turkiston muxtoriyatining harbiy noziri Ubaydulla Xo'jayev va milliy qo'shinning tashkil etilishi bilan bog'liq jarayonlar haqida gapirsangiz.**

– Ubaydulla Xo'jayevning 1909–1912-yillargacha bo'lgan faoliyati haqida ma'lumotlardan ikki muhim narsani bilamiz. Birinchisi – Ubaydulla Xo'jayev Saratovda o'qib, adliya sohasi bo'yicha ma'lumot olgan. U birinchi o'zbek diplomli yuristi. Ikkinchisi – u Tolstoyning yomonlikka qarshi yomonlik bilan javob bermaslik haqidagi nazariyasiga qarshi chiqqan kishi. Demak, u haqiqiy yurist bo'libgina qolmay, adolat yo'lida kurashuvchi inson ham. Men uning ana shu siyratiga yana bir chiziqcha qo'shmoqchiman.

1916-yil qo'zg'oloni ro'y berganida, Ubaydulla Xo'jayev Andijonda "Turkestanskiy golos" gazetasini A. Chaykin bilan birga nashr etayotgan edi. Andijon qo'zg'olonining shafqatsizlik bilan bostirilganini o'z ko'zi bilan ko'rgani uchun u mahalliy chor hokimiyatining bu vahshiyona xatti-harakatidan g'azabga keladi. Peterburgdagi Davlat Dumasini Andijondagi chor amaldorlari bedodligidan xabardor qilib, F. Kerenskiy rahbarligidagi Davlat Dumasini komissiyasini tekshirish uchun Andijonga kelishiga muvaffaq bo'ladi. Ularni qo'zg'olon bo'lib o'tgan va qo'zg'olonchilarning qonlari to'kilgan joylarga olib borib, jabrdiydalarning hasratli qissalarini ularga tarjima qilib beradi. Duma a'zolari Andijonda bo'lib o'tgan vahshiyliklar haqida Peterburgga borib, Davlat Dumasini ogoh qiladilar.

Rus tilini yaxshi bilgan, huquqiy bilimlarni puxta egallagan U. Xo'jayev Saratovdan qaytib kelganidan keyin yurtdoshlarining kishanlangan holda yashayotgani bilan aslo murosqa qila olmagan. U 1917-yilning mart–aprel oylaridan boshlab, Turkistonning siyosiy hayotida faol ishtirok etadi, "Sho'roi islom" jamiyatining rahbarlaridan biri sifatida Toshkentdagi taraqqiyparvar kuchlarni birlashtirish, ularni erk va hurriyat uchun kurashga safarbar etishga intiladi. Turkiston Muxtoriyat hukumatining barpo etilishida uning xizmatlari oz emas.

U. Xo'jayev Turkiston Muxtoriyat hukumatining harbiy noziri etib tayinlanganida Muxtoriyatning birorta askari bo'lmagan. Uning sa'y-harakati bilan 1 mingga yaqin yaxshi qurollanmagan askar Muxtoriyat bayrog'i ostida to'planadi. Bolsheviklarning 1917-yil oxiri 1918-yil boshlarida Muxtoriyatni tugatish uchun kuch va mablag' to'playotganini ko'rgan U. Xo'jayev Muxtoriyat qo'shinlari sonini 2 mingga oshirishga erishadi. Ammo bu askarlarning 1918-yil 13-fevralda Qo'qonga yetib kelgan Osipovning 4 ta zambarak va 4 ta pulemyot bilan qurollangan, 19-fevralda esa 12 ta zambarak va 11 eshelon askarlar bilan yetib kelgan Perfiyevning muntazam qo'shinlariga bas kelishi qiyin edi.

U. Xo'jayev Saratovdalik paytidayoq chor oxrankasining hushyor nigohi ostida yashagan. Muxtoriyat vahshiyona bostirilganidan so'ng, VCHK-OGPU-NKVD organlari uni bir muddat ham tinch qo'ymagan. U 1921, 1926, 1929, 1931-yillarda qamoqqa olinib, qisqa muddatli jazo muddatlarini o'tagan. Ozodlikka erishgan paytlarida U. Xo'jayev turli bahonay sabablar bilan qatag'on qilinayotgan vatandoshlarini advokat sifatida mardona himoya qildi. 1938-yili esa so'nggi marta olib ketilib, otib tashlandi.

– **O'sha davr matbuotining xabar berishicha, 1918-yil 31-yanvarda (hozirgi hisob bilan 14-fevralda) Muxtoriyat milliy qo'shini bilan qizil askarlar o'rtasida jang boshlanadi. Ana shu qurolli to'qnashuv tafsilotlari haqida...**

– Muxtoriyat askarlari vaqtdan yutish, dushmani dog'da qoldirib, qurol-aslahalarini o'lja olish uchun 12-fevralga o'tar kechasi Qo'qondagi harbiy qism joylashgan qo'rg'onga hujum qiladi. Ammo qo'riqchini o'ldirib, darvozani ochib, qo'rg'on ichiga kirgan askarlardan biri bexos tepkini bosib yuboradi. Otilgan o'q ovozidan uyg'ongan askarlar "trevoga" ko'tarib, qo'rg'on darvozasini yopib oladilar...

O'sha kuni kechasi Muxtoriyatning bir necha askari telefon stansiyasiga kirib, telefonistlardan Yangi shahardagi aloqa tarmog'ini uzishni talab



qiladi. Boshqa bir guruh esa qo'riqchini o'ldirib, Qo'qon Soveti binosiga bostirib kiradi va Sovet raisi Babushkini qo'lga olmoqchi bo'ladi. Ammo Babushkin qochibgina qolmay, bolsheviklarga xayrixoh kuchlarni zudlik bilan to'plashga muvaffaq ham bo'ladi. Babushkinning tashabbusi bilan tuzilgan inqilobiy komitet (*revkom*) Toshkent bilan aloqa bog'lab, harbiy yordam so'raydi.

Vaziyatning shunday murakkablashganiga qaramay, muxtoriyatchilar qo'rg'onni bosib olish niyatidan qaytmaydi. Qizil askarlar bunga javoban 31-yanvar soat 15⁰⁰ da zambaraklardan Eski shaharga 10 ta, ertasiga esa 20 ta snaryad otadilar. Eski shahar vayron qilinadi...

Xullas, harbiy tayyorgarlikni o'tmagan, ketmon, bolta, pichoq, to'qmoq bilan ibtidoiy qurollangan Muxtoriyat qo'shini qizil askarlarga bas kela olmaydi.

– **Muxtoriyat tugatilganidan keyin oradan 74 yil o'tib, 1991-yil 31-avgust kuni mamlakatimizda mustaqillik e'lon qilindi. Siz istiqolning ilk yillarida kechgan voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, boshidan kechirgan insonlardan birisiz. O'tgan asrning so'nggi o'n yilligi haqida nimalarni ayta olasiz?**

– Men GKPCH hokimiyatni qo'lga olgan kunlarda Do'rmondagi yozuvchilar bog'ida ijodiy ishlar bilan band edim. Moskvada ro'y bergan davlat to'ntarishi bizlarni televizor qarshisiga mixlab qo'ydi. Biz 37-yil dahshatlari yana qaytib kelishi mumkinligidan sarosimaga tushdik. Toshkent televideniyesining navbatdagi "Axborot" dasturida suxandon O'zbekistonning Mustaqillik haqida deklaratsiya qabul qilganini e'lon qilib qoldi. Bu biz uchun kutilmagan olamshumul tarixiy yangilik edi. Bizning – televizor qarshisida o'tirgan ijodkorlarning yuraklarimiz portlab ketganday bo'ldi! Biz quloqlarimizga ishonmay, bu xushxabarning erta bilan qayta e'lon qilinishini kutdik. Yo'q, tarixiy jarayon shu kuni o'zgargan, O'zbekiston Mustaqillik sari birinchi buyuk qadamini tashlagan edi!

Shu tarixiy voqeaga ham necha yillar bo'ldi. Mamlakatimiz har tomonlama o'zgarib ketdi. 1917–1918-yillarda mustamlakachilarga qarshi ketmon va bolta bilan kurashgan kishilarning nevaralari bugun Mustaqil O'zbekistonning eng zamonaviy texnik vositalar bilan qurollangan milliy armiyasida xizmat qilib, Vatanimizning harbiy salohiyatini yuksaltirib bormoqda. Ular bilan turli harbiy qismlarda uchrashganimda, yoshlarimizning eng faol, eng vatanparvar va eng xalqparvar qismi milliy qo'shin safida xizmat qilayotganini ko'rib, ko'nglim tog'dek ko'tarilib ketadi. Koshki boshqa yoshlar ham ulardek fidoyi insonlar bo'lib ulg'ayishsa...

Suhbatdosh: Furqat ERGASHEV

TEMUR

VA TEMURIYLAR QO'SHINIDA HARBIY KADRLAR



Xalqimiz orasida "Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir", degan purma'no ibora bor. Darhaqiqat, garchi biz hozir texnika asrida yashayotgan bo'lsak-da, yosh avlod tarbiyasida shonli tariximiz muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'tmishi, ota-bobolari, ajdodlari kim bo'lgan, qanday ishlar qilganligini bilmay turib, inson kelajak haqida to'g'ri rejalar tuzolmaydi. Shu sababli, har bir inson, u qaysi millat vakili bo'lishidan qat'i nazar, xalqining tarixini bilmog'i, uni chuqur o'rganmog'i shart va zarurdir.

Amir Temur hayoti davomida adolat, tenglik, halollik, insonparvarlik va ma'rifatparvarlik kabi ezgu va umumbashariy g'oyalarni targ'ib qildi, ularni o'zi uchun tamoyil qila bildi. Yana eng muhim jihati shundaki, islom dinini har yerda va har vaqt qo'llab-quvvatladi.

Sohibqiron umri davomida jamiyatning barcha tabaqa va a'zolari, jumladan, ilm ahlidan hamisha xabardor bo'ldi: "...sayyidlar, ulamo, mashoyixlar, oqil-u donolar, muhaddislar, tarixchilarni sara, e'tiborli odamlar hisoblab, izzat-u hurmatlarini o'rniga qo'ydim. Shijoatli kishilarni do'st tutardim, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi. Ulamo bilan suhbatda bo'ldim va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpindim. Bularning himmatlaridan ulush tilab, muborak nafaslari bilan duo-fotiha berishlarini iltimos qildim. Darvish, faqir va miskinlarni o'zimga yaqin tutdim, ularning ko'ngillarini og'ritmadim va biron talablarini rad etmadim..."

Shuning uchun ham o'sha davrda ilm-fan va maorif rivojlandi. Sohibqironidan keyin temuriy shahzodalar bu yo'lda salmoqli ishlarni amalga oshirdi.

Temuriy shahzodalar orasida Mirzo Ulug'bek o'zining ilm-ma'rifat peshvosi sifatida qilgan xizmatlarining ulkanligi bilan ajralib turadi. Movarounnahrda, xususan, Samarqandda ilm-fan va san'atning taraqqiyotida Ulug'bek va uning atrofida yig'ilgan olimlarning o'zni va hissasi nihoyatda buyukdir. Movarounnahr va Xurosonning boy va serqirra madaniyatiga, islom dunyosining ma'naviy an'alariga suyangan hamda o'z davrining madaniy tajribalaridan to'la foydalana bilgan Ulug'bek mamlakatning ravnaqi, ayniqsa, uning ma'naviy kamolotida ilm-fanning va san'atning naqadar muhimligini yaxshi tushunardi. U mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan bir qatorda ilmiy ishlar bilan shug'ullandi. Ilmiy munozaralar o'tkazdi.

Ulug'bek Movarounnahr shaharlarini, xususan, Samarqand va Buxoroni ilm-u ma'rifat dargohiga aylantirishga intildi. Uning farmoni bilan Buxoroda, Samarqandda va G'ijduvonda madrasalar barpo qilindi. Hatto, Buxoro madrasasining darvozasiga: "Bilim olish har bir musulmon ayol-u erkakning burchidir", degan kalima yozib qo'yilgan. Bu madrasalar zamonasining dorilfununi hisoblanib, ularda Qur'on, hadis, tafsir, fiqh (*din va shariat qonun-qoidalari*), riyoziyot (*matematika*), handasa (*geometriya*), jo'g'rofiya,

ilm-u aruz (*poetika*), arab tili va uning morfologiyasi kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitildi. Samarqand madrasasida Shamsuddin Havofiy, Qozizoda Rumiy, G'iyosuddin Jamshid, Ulug'bek, Ali Qushchilar turli fanlardan dars berishgan. Bu davrda Samarqandda Ulug'bek madrasasidan tashqari Xonim, Firuzshoh, Shohmalik, Xojabek, Mirabduvali va Qutbiddin Sadr nomli madrasalar ham qad ko'targan. Mirzo Ulug'bekning sa'y-harakatlari tufayli bu davrga kelib maorif, ilm-ma'rifat va adabiyot yanada gullab-yashnadi. Shaxsan Ulug'bekning o'zi ham astronomiya (*"Ziji Ko'ragoniy"*), tarix (*"To'rt ulus tarixi"*) kabi fanlarga oid bir qancha yirik asarlar yaratdi.

Amir Temurning adabiyotga ixlosi uning yana bir munosib davomchisi Zahiriddin Muhammad Boburda yanada mukammal namoyon bo'ldi. Shoh va shoir Bobur bir qo'lida qilich yalang'ochlab, bobosi kabi yetuk sarkarda va ikkinchi qo'lida qalam tutib, iqtidorli shoir bo'lib yetishdi.

Bobur "Boburnoma" tarixiy-memuar asaridan tashqari, ilm-fan rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shiluvchi "Muxtasar" (*aruz ilmi haqida*), "Harb ishi" (*harbiy sohaga oid*), "Mubayyin" (*islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag'ishlangan*) kabi asarlarni ham taqdim etdi. Yozilgan asarlarning turli fan sohalariga tegishliligi Boburning qomusiy bilim egasi bo'lganligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Amir Temur avlod tarbiyasiga nihoyatda ehtiyotkor bo'lgan. Nasl tozaligiga alohida ahamiyat qaratgan. Nasl, avlod salomatligi uchun kelin tanlashga har tomonlama e'tibor bergan. Shuningdek, shahzodalarga turli mast qiluvchi ichimliklar ichishni, chekishni taqiqlagan. Asosiy e'tiborni ular tarbiyasi va ta'limiga qaratgan.

Oilasiga qilgan e'tiborni butun xalqiga, saltanatiga ham ko'rsata olgan. Aholining tinchligi, farovon turmushi uchun ilm-ma'rifatni asosiy qurol deb bilgan. Ulkan saltanatda adolatni ta'minlashga bor kuchini sarflagan. Bu haqda o'zining tuzuklarida quyidagi fikrni aytadi: "Mening saltanatimda kimki mukofotga loyiq ish qilsa, mukofotsiz qolmaydi, jazoga loyiq ish qilsa, jazosiz qolmaydi".

Amir Temur va temuriylar bola tarbiyasida ham ma'naviy, ham jismoniy yetuklikni muhim deb bilishgan. Shu boisdan, farzand

tarbiyasida jismoniy tarbiyaga, harbiy san'atlarni egallashlariga alohida ahamiyat qaratishgan. Temurning kuchli sarkarda bo'lganligi barchaga ma'lum. U buyuk lashkarboshi, mohir jangchi sifatida mukammal, yaxshi qurollangan, tezkor hujum qilishga qodir, muayyan taktik va strategiyaga ega bo'lgan qudratli armiyaga asos soldi. Bu armiya, ya'ni qo'shin o'nlik, yuzlik va tumanliklarga bo'lingan edi. Amir Temurning harbiy jang san'ati, uning taktika va strategiyasi ko'p mamlakatlarda, jumladan, Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarning harbiy akademiyalarida maxsus o'rganilgan va hozirga qadar o'rganilmoqda. Bu esa uning harbiy salohiyati qanchalar yuqoriligidan dalolat beradi.

Shunga ko'ra, yosh avlodni, xususan, zamonaviy harbiy kadrlarni tayyorlashda, ularni o'qitishda Amir Temur va temuriy shahzodalar hayoti va faoliyati muhim manba sanaladi.

Hozirgi kunda ba'zida odamlar orasida jismoniy faoliyat bilan shug'ullanuvchi insonga aqliy salohiyat u darajada shart emas, degan gaplarni eshitib qolamiz. Vaholanki, har qanday kuchni ham to'g'ri yo'naltirish uchun albatta, aql shart va zarur. Chunki aql bo'lmasa, kuchni noto'g'ri yoki yomon maqsadda, zararga ishlatish mumkin. Ana shunday noto'g'ri fikrli odamlarga shu o'rinda sohibqiron Amir Temur va temuriy shahzodalarni ibrat qilib ko'rsatishimiz lozim. Shuningdek, dono xalqimizda ham "Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqar", deya bejiz aytmagani.

Ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham ajdodlarimiz qilgan ishlarni o'nak qilib ko'rsatish ularning tarbiyasiga samarali ta'sir qiladi. Bunda ular hayotidan turli hayotiy ibratli voqealarni aytib berish, ularning tarixini chuqurroq o'rgatish, ayniqsa, muhim.

Zamonaviy harbiy kadrlarni tayyorlashda esa asosan Amir Temur va temuriy shahzodalarning harbiy salohiyati, irodasi, chidami, atrofidagilar bilan munosabati, shuningdek, ularning jangovar holatlarda qo'llagan taktikalari, hiylalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan bu borada o'rganilgan bilimlar ularning kelajakdagi xizmat faoliyatlarida asqatishi, shubhasizdir.

Xurshidjon XOLIQOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
2-kurs magistri





BOBUR

SHAXSIYATIDA

JANG FALSAFASI

Jahonda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, dunyoni bo'lib tashlash va hukmronlik qilishga yo'nalgan mafkuraviy kurashning avj olishi mamlakatlarning hududiy xavfsizligini ta'minlash uchun zamonaviy harbiy texnologiyalardan foydalana oladigan mahoratli harbiy xizmatchilarni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi, kasbiy va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda haqqoniy tarixni o'rganishga ehtiyoj oshmoqda. Zahiriddin Muhammad Boburning ma'naviy jasorati, sarkardalik hamda harbiy notiqlik mahorati qo'shinning jangovar ruhini yuksaltirishda muhim omillardan biri bo'lgan.



Amir Temurning jasorati Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy yurishlari va mahoratida davom etgan. Bu buyuk zot o'n ikki yoshdan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o'zini nafaqat mohir diplomat, shuningdek millatparvar, vatanparvar sifatida ham namoyon qilgan, u dushman bilan barobar olishgan va barcha sinovlardan o'tgan. Qirq olti yillik umri davomida u o'zidan keyin betakror badiiy asarlar qoldirish bilan bir qatorda buyuk davlatchilikni, o'z avlodlariga Vataniga bo'lgan buyuk muhabbati, ezgu fazilatlarini meros qilib qoldirdi.

O'z navbatida, Bobur dovyurak, jasur va mohir lashkarboshi bo'lgan. Raqiblari bir necha bor mag'lub qilgan bo'lsa ham, u o'zini batamom mag'lub deb hisoblamagan. Shuning uchun ham Bobur ko'zlagan maqsadiga yetishishiga hamisha ishongan. U o'z mag'lubiyatlaridan ham to'g'ri xulosa chiqarib, qobiliyati va irodasini chiniqtirib borgan. Zahiriddin Muhammad Bobur turklar, mo'g'ullar, shayboniylar, forsiylar va afg'onlar bilan bo'lgan janglarda juda ko'p tajriba to'plagan va chiniqqan. Ularning har biridan jang qilish uslubini o'rganish asnosida o'zining urush olib borish taktikasi va qurollarini takomillashtirib borgan.

J. Rahimovning "Bobur – buyuk sarkarda yoxud jahon harbiy san'ati rivojiga hissa qo'shgan ulkan g'alabalar" kitobida shunday ma'lumotlar keltiriladi:

– Bobur Mirzo ilk bor qo'shinini harbiy isloh qilishni Kandahor yurishi oldidan amalga oshirganligini "Boburnoma"da qayd etgan edi: "Hech vaqt buncha tartib va intizom bilan saf tuzmasdim. Hossa tobinga (*bu shohning maxsus bahodirlardan iborat harbiy qismi bo'lib uni bemalol Boburning yangi tashkil etgan Milliy gvardiyasi deyish mumkin (muallif izohi)*) qo'ldan ish keladigan yigitlarni ajratib olgan edim: o'n-o'n, ellik-ellik qililib, o'n boshi va ellik boshini tayin qildim. Har o'n va ellik va so'l qo'llarda turar yerlarni bilib, urush paytida qiladigan ishlarini aniqlab, hozir va nozir edilar. O'ng qanot, so'l qanot va o'ng qo'l va so'l qo'l, o'ng yon va so'l yon jadal otlangach, xabarchi lashkar qism ham qiynalmay tayinlangan yerga tomon yura berdilar.

Garchi barong'or (*o'ng qanot*) va o'ng qo'l, o'ng yon va o'ng so'zlarining ma'nosi bir xil bo'lsa-da, lekin so'z o'zgarishi bilan har xil ma'no beradi. Chunonchi, barong'or o'ng qanot va chap qanot javong'or ma'nosida maymana va maysara, jangovar safning markazi g'ul tarkibida emas. Bu nav jangovar safni o'sha istiloh ma'nosida barong'or va javong'or deyiladi. G'ul safining o'ng va chapini farq qilish

uchun o'ng qo'l va so'l qo'l deb aytiladi.

Shu tariqa Boburning jang arafasidagi o'tkazgan ilk harbiy islohoti o'zini oqlab g'alaba ta'minlandi. Bunda qo'shinni jangovar holda joylashtirish va sarkarda hamda jangchilarning qahramonlarcha jang qilishlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuning uchun ham Bobur ijodida Vatanni jon-u dildan sevishtirish eng asosiy o'rinni egalladi.

Harbiy notiqlik mohiyat e'tibori bilan jangovarlikni, xitob va da'vatni anglatadi. Shuning uchun ham mashhur Rim notig'i Mark Tulliy Sitseron "Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda yoki notiq bo'lish kerak", degan. U ko'rib kuzatgani va anglab yetganidan so'ng shu fikrga kelgani aniq. Notiqlik va harbiy sohadagi faoliyat o'zaro uzviy bog'liqdir. Har qanday g'alabani ta'minlash mezonini bevosita notiqlik mahorati bilan bog'liq.

Mard va tadbirkor, san'atni sevgan kishigina qat'iy iroda, o'z so'ziga, fikriga ega inson bo'lishi tayin. Jonli manzaralar yaratuvchi, da'vatkor kuchga ega so'zning o'zni katta. To'p-u zambaraklar, behisob qo'shin eplay olmagani ishni oddiy so'z bajara olganiga tarix shohid.

Boburning nutq mahorati haqida mufassal ma'lumotni shoh va shoirning qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asaridan olish mumkin. 1527-yili Boburning Hindistonda Rano Sango bilan jangi oldidan qo'shinlari orasidagi vaziyat aziyatga sabab bo'ladi. Boshi qovushmagan jangchilar orasida ixtilof va tarqoqlik boshlanadi. Shunda Bobur lashkarga qarata jonli, ta'sirchan nutq irod qiladi. Gulbadanbegim "bunga majlisdagilarning hammasi rozi bo'lishib..., tomirimizda bir tomchi qonimiz qolguncha kurashamiz, deb qasam ichadilar..." degan dalilni keltiradi:

– Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidan ichkusiدير va har kishikim, tiriklik manziliga kiribtur, oxir dunyo g'amxonasidan kechkusiدير, yomon ot bilan tirilgandin, yaxshi ot bilan o'lgan yaxshiroq... Tangri taolo bu nav' saodatni bizga nasib qilibtur va mundaq davlatni bizga qariyb aylabtur. O'lgan shahid va o'ldurg'on g'oziy, barcha Tangrining kalomi bilan ont ichmak kerakkim, hech kim bu qatoldin yuz yondirur xayol qilmay, to badandin joni ayrilmag'unicha, bu muhoriba va muqotiladin ayrilmag'ay". Boburning ushbu otashin, jangovar nutqidan so'ng barcha askarlar yakdil holda, jam bo'lib, jangga kirishgan.

Bobur Mirzoning harbiy mahorati va notiqlik san'ati imkoniyatlarini bilishi jang-u jadallarda qo'l kelganiga Hind va Afg'on zamini sari harbiy yurishlarida yaqqol

ko'rinadi. 1526-yil apreldagi Panipat jangida Bobur asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik qo'shinini o'zining 12 minglik askari bilan tor-mor qilishi aqlga sig'maydigan hol. O'n ikki ming askar orasida yuz ming qo'shinga qarshi jangga kirish mushkul ekanini o'ylab, talmovsirash boshlanadi. Uy-joyini qo'msab, oila va farzandlari diydorini ko'rmasdan behuda o'lib ketish xavfi askarlarni cho'chitadi.

Harbiy tafakkur kuchi, donish aqliy quvvati, davlatchilik iste'dodi bilan temuriylar sulolasining umrini uzaytirib uning siyosat maydonida 332-yil yashab qolishiga yo'l ochdi. Temuriylar sulolasining uzviy davomi sifatida boburiylar nomi bilan jahon tarixi sahifalarini bezadi.

Jang oldidan lashkarni ruhlantirish, g'alabaga nisbatan ishonch tuyg'usini uyg'otish tajribali qo'mondonlarning faoliyatida sinashta bo'lgan. Napoleon Bonapart jangga kirishishga tayyor turgan qo'shinga qarata shunday deyishi odat bo'lgan. "Jangda o'lishni hamma eplaydi. Mard va jasur jangchilargina tirik qoladi. Menga o'lingiz emas, tirigingiz kerak. Shunday ekan, barchangizga o'lmaslikni buyuraman, olg'a!" deya xitob qilarkan.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda global axborot makonidagi qarama-qarshilik, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan mafkuraviy kurash maydonida harbiy xizmatchilarda mustahkam iroda, Vatanga sadoqat hamda milliy va jangovar ruhni yuksaltirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki milliy ma'naviyat durdonalaridan mahrum bo'lgan, milliy o'zligidan yiroqlashgan inson to'laqonli shaxs darajasiga ko'tarilmaydi, fanzandlari yuragida yuksak vatanparvarlik ruhini uyg'otolmagan, kamol toptira olmagan millat, har qancha qudratli qurolga ega bo'lmasin, bir kuni g'animlar tomonidan mahv etiladi.

Bizning buyuk tariximizdagi milliy qahramonlar va sarkardalarning ko'rsatgan jasorati, matonati hamda vatanparvarligini keng miqyosda o'rganish va targ'ib qilish harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilar qalbida milliy ruh, millat sha'nini asrash tuyg'usi vatanparvarlik bayrog'iday muhim o'rin egallashi shartdir.

**Podpolkovnik
Akromjon SHOXAKIMOV,
Qurolli Kuchlar
akademiyasi milliy ixtiyor
va harbiy-vatanparvarlik
kafedrasida katta o'qituvchisi,
falsafa fanlari doktori (PhD)**

Ustozlar ulug'i, zakosi kitob

*Tafakkur olamin tug'rosi kitob,
Sinorli dunyoda uning qo'lin tut,
Ranj-u riyozatning davosi kitob.
Usiz olam aro nurli manzil yo'q,
Beminnat suyanchiq, do'st-u benazir yo'q.*



Inson ongi, aql-u zakovati ulug' ishlarga qodirki, bularning eng buyugi kitob, desak, haq gapni aytgan bo'lamiz. To'g'ri, Yer yuzidagi buyuk evrilishlar buyuk kashfiyotlarni yuzaga keltirdi. Bashariyat ahli texnika asrida yashamoqda. Keyingi evrilishlar fazo asriga zamin yaratsa, ajabmas. Biroq kitobning o'rnini bosadigan, uning o'rnini egallay oladigan mo'jizani yaratish mumkinmikan? Negaki aslida bu yaratuvchanlikning muqaddimasida ming yillar davomida kitoblarda asralgan ajdodlarning tafakkur ilmi mujassam. Ya'ni barcha kashfiyotlar omili – onasi kitobdir.

Jahongir Amir Temur bobomiz qaysi bir yurti mahv etmasin, sarbozlariga o'sha mamlakatlardagi kutubxonalar va olimlariga ziyon yetkazmaslikni ta'kidlar ekan. Bu ulug' bobokalonimizning ziyo ahlini qay darajada hurmat qilishi va kitobga mehr qo'yganidan dalolat. Ajdodlarimizdan meros bu mehr avlodlarda mujassam, deb ayta olamizmi?

Texnika asrida inson tafakkuri ila kompyuterga asos solindi, qo'l telefonlari yaratildi. Bu kashfiyotlar hamon murakkablashib, sayqallanib bormoqda.

Biroq bashar ahli shuni ham teran anglab yetmoqdaki, kitobning o'rnini hech bir mo'jizaviy yaratuvchanlik egallay olmaydi. Negaki elektr quvvati bilan ishlovchi har qanday texnikaning inson salomatligiga, ma'naviy qarashlariga, ya'ni ruhiyatiga raxna soluvchi nojo'ya ta'siri haqida olim-u ulamolarimiz katta davralarda soatlab so'z yuritishmoqda, buning yechimi ustida bosh qotirishmoqda. Ayniqsa, hayotga endigina kirib kelayotgan, hamma narsaga qiziquvchan kelajagimiz egalari – farzandlarimizni bu kashfiyotlarning qusurli tomonlaridan asrash uchun chora-tadbirlar izlanmoqda. Bu jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb muammolardan biri.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, buning davosi ham faqat kitob. O'g'il-qizlarimiz kitobni o'zlariga ishonchli do'st deb biladilar ekan, uning kuch-qudrati va imkoniyatlariga ishonar ekan, albatta kitobga bog'lanadi. Buning uchun faqat biz ota-ona va ustozlar farzandlarimizga bu haqiqatni singdirmog'imiz, kitobga mehr qo'yishlariga zamin yaratmog'imiz shart.

Mamlakatimizda kitobxonlik madaniyati, kutubxonalar va kitob do'konlari faoliyatini rivojlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mudofaa vazirligi tizimida ham bu borada samarali ishlar yo'lga qo'yilgan. Harbiy qism va muassasalardagi kutubxonalar faoliyatiga jiddiy e'tibor qaratish, rivojlantirish, ushbu ziyo maskanlaridagi kitoblar zaxirasini yangi adabiyotlar bilan boyitish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini kitobga bo'lgan munosabatini yanada

yaxshilash, kutubxonalarga jalb etish, bu borada taniqli insonlar, olim-u shoirlar ishtirokida tadbirlar uyushtirish, kitobxonlik kechalari va ko'rik-tanlovlar o'tkazish kabi chora-tadbirlar qo'llanilmoqda.

Xizmat safari bilan okruglardagi qaysi bir harbiy qism va muassasada bo'lmaylik, ma'naviyat va ma'rifatning oltin kaliti bo'lmish kutubxonalar bilan albatta tanishamiz. Termiz garnizonidagi polkovnik Azizjon Sodiqov xizmat qilayotgan harbiy qismdamiz. Qism kutubxona mudirasi Matluba Qobulovaning bu vazifaga kelganiga endigina uch oy bo'lgan ekan. Harbiy qism komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari podpolkovnik Suxrob Yuldashevning "Bu opa tug'ma kutubxonachi", degan ta'rifidan sezdikki, Matluba opa bu sohada katta tajribaga ega.

– 2006-yildan 2023-yil, ya'ni harbiy qism kutubxonasiga kelgunimga qadar, Surxondaryo viloyati Axborot resurs markazida (*hozirda viloyat bolalar kutubxonasi*) ishlaganman, – deydi Matlubaxon Qobulova faoliyatini tanishtirib o'tar ekan. – Kasbimni juda sevaman. Biz kitobni e'zozlagan, ilmni qadrlagan ulug' ajdodlarning vorislarimiz. Shu sabab har birimizning qonimizda bilim olishga ishtiyoq, kitobga bo'lgan qiziqish va mehr mujassam. Harbiy xizmatchilarimizning ma'naviy barkamolligi, intellektual salohiyatining teranligi, vatanparvarligi, fidoyiligi zahirida shubhasizki, kitob mutolaasidan olgan bilim va qudrat bor.

Kutubxonamizdan yetti mingdan ziyod badiiy adabiyotlar hamda sohaga oid kitob va qo'llanmalar joy olgan. Bu yerda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p. Dastlabki faoliyatimni kitoblarning joylashuv tartibidan boshladim.

Darhaqiqat, ziyo maskaniga qadam qo'ygan kitobxonni kitob shkaflariga san'at asari darajasida joylashtirilgan turli mavzudagi asarlar qarshi oladi. Avvalo, kutubxona juda shinam bo'lib, o'quvchilar uchun barcha sharoit mujassam. Kitoblar bilan birga respublikamizda chop etilayotgan yetakchi gazeta va jumallar ham mavjud. Bir so'z bilan aytganda, mutolaa ilinjida kirgan kitobxon albatta, o'zi istagan mavzudagi kitob tanlay oladi. Matluba opa bilan suhbatni rejalari borasida davom ettiramiz:

– Maqsadim turli loyihalar orqali kutubxonamiz o'quvchilari sonini ko'paytirish. Loyihalarimdan biri harbiy qismda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib, kitobga mehri baland taniqli insonlarni, ya'ni olim, shoir, hokim, oliygohlardagi ustozlar, harbiy soha darg'alarini taklif qilish. Bunda tashrif buyurgan

mehmonlar kitob va uning qudrati, ularning hayotida kitobning muhim o'rin tutgani haqida so'z yuritib, o'zlari o'qigan kitoblardan olib kelib, dil istaklarini yozgan holda harbiy xizmatchilarga topshiradi. Nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ularning oila a'zolarining kitobxonlikka bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirish maqsadida yana bir loyiha rejalashtirdim. Harbiy xizmatchilar oilalari bilan qayerda istiqomat qilmasin, ular harbiy shaharchalardami, mahallalardami, kitoblar to'plamidan olib borib, ularga tanishtiramiz. Umid qilamanki, bu ko'chma kutubxona harbiy xizmatchilarning oila a'zolari – rafiqalari va farzandlarini kitob olamiga keng jalb etishga xizmat qiladi. Ular bilan mutolaa borasida suhbatlar o'tkazish barobarida, turmush o'rtoqlari xizmat qilayotgan harbiy qism va muassasalardagi kutubxonalarga a'zo bo'lishlarini maslahat beramiz. Muddatli harbiy xizmat oddiy askarlari o'rtasida yangi kitoblar taqdimotini o'tkazib turish ham kitobxonlikka keng yo'l ochadi. Rejalirim to'g'risida uzoq to'xtalishim mumkin. Barchasi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining kitobxonlar safidan joy olishiga xizmat qiladi.

Menga kutubxona mudirasining harbiy oila bekalari va farzandlarini kitobxonlikka jalb etish loyihasi yoqdi. Zero oilada onaning mutolaa bo'lgan qiziqishi, ma'naviyati qay darajada yuksak bo'lsa, uning tarbiyasidagi o'g'il-qizlari ham albatta, bundan o'rnak oladi. Agar e'tibor qilgan bo'lsangiz, bugunga kelib, oilalarda kitobga bo'lgan mehr va ishtiyoq qad rostlamoqdaki, bundan faxrlansak arziydi. Ayniqsa, o'g'il-qizlarimizdagi ilm egallashga, til o'rganishga, tariximiz va milliy qadriyatlarimizni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, jahonga chiqish ishtiyoqi yildan yilga ortib bormoqda. Albatta, buning negizida kitob mutolaasi mujassam. Milliy qadriyat va ma'naviyatga ega farzandlar esa o'zligini asrashga, Vatanga, millatiga sadoqatli bo'lishga intiladi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar qatorida harbiy oila bekalari bilan alohida davra suhbatlari olib borish hamda ular o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini o'tkazish ham Matluba opaning rejasidan joy olgan.

Navoiy bobomiz so'zi bilan aytganda, kitob bu oftobdir. Kitob – haq-huquq, kitob – tarixing va ma'naviyating. Bilimli, ma'naviyatli inson hech qachon o'zligini, hurligi va tinchligini o'zgalarga qurbon qilmaydi. Ulug' niyat, nurli maqsad ila kelajakka yuzlanadi.

Zulfiya YUNUSOVA,
«Vatanparvar»

Yurtimiz qadimdan dunyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo'lgan, shu sababli ham ming yillar davomida ushbu zamin uchun shafqatsiz urushlar va to'qnashuvlar olib borilgan, ammo ajdodlarimiz hech qachon bosqinchilarga bo'yin egmagan. Shu sababli ham tariximizda muqaddas tuproqlarimizni o'ziga Vatan deb bilgan son-sanoqsiz qahramonlar haqida hikoyalarga boydir. To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur...

Shu o'rinda Vatanning asl qahramonlari qachon paydo bo'ladi degan tabiiy savol paydo bo'ladi? Bu savolga javob shunday, Vatan sarhadlariga yengilmas va shafqatsiz yov bostirib kelganda ham o'z halokati muqarrarligini bilsa-da bosqinchiga qarshi kurashdan qochmagan, yuragidagi ona Vatan ruhini qo'rquvdan ustun qo'ygan yurtning asl o'g'lonlari maydonga chiqqanda namoyon bo'ladi. Dunyoning yarmini egallagan saltanat sohiblari Doro, Aleksandr Makedonskiy, Chingizxon kabi shafqatsiz bosqinchilarga qarshi tengsiz kurashda mardonavor jang qilgan va bu yo'lda jon fido qilsalarda aslo yovga taslim bo'lmagan bobolarimizning hayot yo'li bunga isbotdir.

Shayx Najmiddin Kubro, Sulton Jaloliddin Manguberdi haqida turli tarixiy ma'lumotlar mavjud, ularning barchasidagi o'zgarmas yagona haqiqat, bu Vatan ozodligi uchun tengsiz kurash va bu yo'lda sarflangan qisqa, lekin jasoratga to'la hayot bor. Jaloliddin

ENG

ham sulton, ham sarkarda, ham jangchi o'laroq, o'zi hamda Vatanning g'urur va nomusi himoyasi uchun oilasini va o'z jonini ham fido qilib bosqinchilarga qarshi kurashgan vatanparvar shaxsdir. U parchalangan va yong'in ichida qolgan yurtning minglab mard farzandlarini birlashtirib, tarixda hech qachon mag'lub bo'lmagan mo'g'ullar qalbiga qo'rquv solgan yagona dovyurak sarkardadir. Shuning uchun ham uning shijoati va jangovar ruhi oradan salkam 1000-yil o'tsa-da avlodlar uchun namuna bo'lib qolmoqda.

Amir Temur ham eng avvalo parchalangan va toptalgan yurti birlashtirishdek muhim vazifani maqsad qildi. Bu yo'lda qancha tahlakalarni boshidan kechirsa-da o'z yo'lida sobit davom etdi va Movarounnahr hududini ozod etib keyinchalik buyuk Turon davlatini yaratdi. Ajdodlarimiz saltanat, boylik yoki o'zlari va yaqinlarining tinch hayotini emas balki shu Vatan, xalq va avlodlar oldidagi burchlarini hamma narsadan ustun deb bilishgan. Ma'lumki buyuk shaxslarni tarix yaratadi degan tushuncha mavjud, ammo tarixga nazar tashlasak buyuk shaxslarni tarix emas, balki ular hayotini bag'ishlagan xalq va ona yurt qayg'usi yaratadi, deyish o'rinlidir.

Aynan ulug' ajdodlarimizning ozodlik ruhi asosida o'zbek xalqi mustaqillikni qo'lga kiritdi, lekin yovuz niyatli insonlar har zamon bo'lgani kabi istiqloqlning ilk yillaridayoq xalqimiz tinchligi va osoyishtaligiga raxna soluvchi kuchlar paydo bo'la boshladi. Ularga qarshi kurashish va mustaqillikni saqlab

BUYUK OMIL

qolish uchun ham faqatgina o'z kuch-qudratiga tayana oladigan milliy armiyani tashkil qilish asosiy vazifaga aylandi. Bu yo'nalishda ilk qadam uzoq yurtlardagi harbiy xizmatchilarni Vatanga qaytarish va yosh avlodni ham yangi milliy ruh asosida qayta tarbiyalash va tinchligimizni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish bo'ldi. Ushbu harakatlar natijasi o'laroq yurtimiz mintaqadagi eng kuchli armiyani yaratdi va bu natijaga faqatgina qurol-yarog' yoki armiya soni bilan emas, balki unda xizmat qiluvchilarda Vatan tuyg'usining yuksakligi va bu asosdagi professional tayyorgarlikka yuqori e'tibor berish orqali erishildi.

1999–2000-yillarda mamlakatimiz sarhadlariga bostirib kirib xalqimiz tinchligiga raxna solishni maqsad qilgan qo'poruvchi guruhlariga qarshi kurashda yurtimizning asl o'g'lonlari o'z jonlarini fido qilishdi. Bu insonlar Vatan himoyachisi vazifasini shunchaki havas deb emas, balki uning tub zamirida qanday g'oya mavjud ekanligini anglaganliklari uchun ham hayotlarini fido qilishlari aniq bo'lgan tahlila qarshisiga chiqishdan cho'chishmadi, o'z qasamyodlari va Vatan oldidagi burchlariga sodiq qolib bosqinchilarga bu yurt egasiz emasligini va ajdodlarga munosib avlod ekanliklarini isbotlashdi.

Qahramon Madalimov, Boburjon G'aniyev, Sayyor Sadinov, Alisher Salimov, Elomon Otajonov kabi o'nlab yigitlar 2000-yilda Vatan sarhadlarida bosqinchilarga qarshi omonsiz janglarda qahramonlik ko'rsatib halok bo'lishdi. 2005-yilda Andijondagi terrorchilik

harakatlarini bartaraf qilish vaqtida Kapitan Bahrom Jo'rayevning jasorati ham alohida e'tiborga molik. Bu qahramon yigitlarni umumlashtiruvchi bir jihat bor u ham bo'lsa, Vatan va xalq manfaatini o'z hayotidan ustun qo'yish matonatidir.

Bugungi kunda milliy armiyamiz jangovarligini oshirishda ajdodlarimizning jasorat ruhini harbiy kadrlar ongiga singdirish bilan bog'liq bir qator yirik islohotlar amalga oshirilmoqda. Amir Temur va Jaloliddin Manguberding jasorati va vatanparvarligini yoshlar ongiga singdirish maqsadida yuksak mahorat hamda sharaf ramzi bo'lgan Amir Temur jangovar bayrog'ining ta'sis etilishi qo'shinlarda milliy va jangovar ruhni oshirish hamda harbiy xizmatchilarimizda ajdodlar jasorati va matonati bilan g'ururlanish, ularga munosib avlod bo'lishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Harbiy xizmatchilarimiz Buyuk Britaniyadagi “Kembriya patruli” va Janubiy Koreyada o'tkazilgan xalqaro merganlik tanlovi va boshqa musobaqalarda o'z so'zlarini aytib, g'oliblik shohsupasidan o'rin egallamoqdalar. Bu g'alabalar zamiridagi eng buyuk omil, muqaddas yurt, tuproq va unda yashovchi xalqqa sadoqat hamda uning or-nomusi, g'ururi himoyasi uchun jasorat ko'rsatish, ulug' ajdodlarga munosib voris bo'lish tuyg'usidir.

Mansur ABDULLAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi talabasi

✓ IJTIMOY HIMOYA

HARBIY OILALAR SALOMATLIGI YO'LIDA

Bugun harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasi uchun amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini nihoyatda kengayib bormoqda. O'lis garnizonlardagi harbiy shaharchalar sharoitini kuzatib ularda markaziy shaharlardagi imkoniyatlar mavjudligiga guvoh bo'ladi kishi. Alohida isitish tizimlari, gaz, suv, elektr ta'minoti deysizmi barcha qulayliklar muhayyo.

So'nggi yillarda ijtimoiy himoya masalalari yanada kuchaytirilib uzoq ovullar, chekka qishloqlardagi harbiy oilalarni tibbiy-ko'rikdan tizimli o'tishini ta'minlash uchun maqsadli ishlar amalga oshirilyapti.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Qashqadaryo viloyati Pachkamar garnizonida joylashgan harbiy qismda O'zbekiston Respublikasi harbiy prokuraturasi, Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi, okrug boshqaruv apparati, G'uzor tumani hokimligi, barcha kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun tibbiy-ko'rik tashkil etildi.

Dastlab, qism madaniyat markazida harbiy xizmatchilarning oila a'zolari va rahbarlar o'rtasida muloqot bo'lib o'tdi. Harbiy shaharchada yaratilgan sharoitlarni o'rganish, mahalla va oilada uchrayotgan

muammo hamda kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan suhbatlarda harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari uchun kerakli maslahatlar berildi. Suhbat asnosida oilaviy ajrimlarning kelib chiqish sabablari va oldini olish yo'llari borasida fikrlar bildirildi.

Shundan so'ng alohida xonalarda mas'ul rahbarlar tomonidan murojaatlar tinglandi. Harbiy xizmatchilarning band bo'lmagan turmush o'rtoqlarini ish bilan ta'minlash borasidagi murojaatlar G'uzor tumani hokimligi mas'ullari tomonidan hal etilishi belgilandi. Barcha savollarga huquqiy tushuntirishlar berildi.

Harbiy qism tibbiyot punktida o'tgan tibbiy-ko'rik jarayonlariga Qashqadaryo viloyati Onkologiya dispanser shifokor mammolog va okusher ginekologlari, Qarshi harbiy gospitali malakali mutaxassislari, viloyat sog'lom avlod uchun shifokorlar patronaj brigadasi hamda sayyor mammografiya texnikasi mutaxassislari

bilan birgalikda jalb etildi. Tashrif buyurgan yuzlab murojaatchilarga nevropatolog, pediatr, ginekolog, lor, stomatolog, UTT tekshiruvi singari bir qancha tibbiy xizmatlar ko'rsatilib, sog'lom turmush tarzi borasida maslahatlar berildi.

Ta'kidlash kerakki, bu kabi malakali tibbiy xodimlar ko'rigidan o'tish, maslahatlarini olish uchun olis tog'li hudud Pachkamar garnizonidagi oilalarga viloyat markazi Qarshi shahriga qadar masofa biroz noqulayliklar tug'diradi. Tadbir mohiyati ham ana shu mashaqqatlar yechimiga qaratilgan.


Shuningdek, qism hududiga bolalar ko'chma o'yingohi va kitob yarmarkasi keltirilgani mehmonlar hamda harbiy xizmatchilarning kutish davomidagi vaqtlarini yanada sermazmun o'tishi uchun xizmat qilgani aniq.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug
matbuot xizmati



Inson yolgʻizlikda baxt va halovat topmaydi. U hamisha jamiyat, undagi mavjudotlar bilan birga uzviy aloqada boʻladi. Ana shu muomala-munosabat samarasi tufayli inson kishilik jamiyatida oʻz oʻrniga egadir. Insoniy munosabatlarning eng avvalida ota-ona, tugʻishganlar, qarindosh-urugʻ, umuman, hayotda kishining oʻziga aloqador odamlar bilan munosabati hisoblanadi. Qolaversa, kishi oʻzi yashayotgan jamiyat va undagi muhit bilan hisoblashishga majbur. Odam bolasi “boshqalar bilan nima ishim bor, muhimi, menda hammasi yaxshi boʻlsin”, degan aqida bilan yashashga haqli emas.

ALDOVLARGA KO'NIKIB QOLMANG



Bu – beparvolik, loqaydlik va albatta xudbinlikning eng razil koʻrinishi! Bunday xarakterdagi kishilar maʼnaviy olami xarob va axloq tushunchalari zaif odamlardir. Biror kishiga qandaydir zarar yetsa xursand boʻladigan, mamnunlik tuyadigan odamda axloq tuygʻulari qaydan boʻlsin? Boshqalarning gʻamginligidan shodlik istagan kishini odam deb atash toʻgʻri boʻlarmikan?..

Afsus, oramizda shundaylar ham uchraydi. Atrofidagilarning koʻnglini ogʻritib halovat topadigan, birovning musibatiga sevinadiganlar, kimlarningdir koʻzyoshlari evaziga kuladiganlar... Shaytonning lashkari ular. Birovi poraxoʻr shifokor niqobida koʻrinadi. Ikki dunyo oʻrtasida, jon talvasasida oʻrtanayotgan bemorning sogʻligʻi, yaqinlarining iztirobi koʻrinmaydi koʻziga. “Hayotini saqlab qolsam, qancha berarkan?” degan malʼunona oʻylar charx uradi miyasida. Shiori: “Oʻlib ketavermaydimi, choʻntagimga pul kirs boʻldi”. Odam nuqsidagi iblis. Iblis ham shunday razil oʻylardan hayo qilsa kerak...

“Odam savdosi” degan jumla koʻp ishlatilyapti bugun. Inson qadr-qiymati, nomusi, shaʼnini bozorga chiqarishyapti. Oʻz birodari, yurtdoshi, millatdoshi, qishloqdoshi va hatto qarindosh-urugʻlarini xorij korchalonlariga sotib yuborib, shu jirkanch “tirikchiligi” ortidan kelayotgan moʻmay daromadiga havolanib yuradiganlar koʻpayapti oramizda. Ular qilmishlari na insoniy, na sharʼiy va na amaldagi qonunlarga mutlaqo zid ekanligini bilmaydi, deb oʻylaysizmi? Yoʻq, aslida hammasini juda yaxshi bilishadi. Lekin taʼkidlanganidek, “Boshqalar battar boʻlmaydimi, eng asosiysi, menda hammasi yaxshi boʻlsin”, degan qabih niyat nafsoniy istaklariga kuch beradi.

Hayotimizdagi chigalliklarni oʻylasam, odam “oʻzim” deb hech narsaga erisholmasligiga, atrofidagilarning fikri, qarashi bilan hisoblashmaganning hayoti xatoga aylanishiga iqror boʻlaman... Haqiqatan ham jamiyatga qarshi borgan, jamiyat manfaatini oʻz manfaatidan ustun qoʻymagan kishining umri xatolar ustida omonat turadi. Inson qachon baxt va halovat topadi? Qachonki u “Hammada boʻlsin, koʻp qatori menda ham boʻlsin” deya olsa. Biroq taassufki, oramizda oʻz manfaatini ustun qoʻyguvchilar “faqat oʻzim boʻlsam” deguvchilar ortyapti.

Salomimgizga erinibgina alik oladigan qoʻshningiz, jamoada ijtimoiy mavqeyi, moliyaviy ahvoli, kiyinishi (*bu hol koʻpincha ayollarga xos*) va hokazolariga qarab, muomala qiladigan hamkasbingiz, qarindoshlik rishtalarini taʼma ilinjida bogʻlayotgan yaqiningiz... Bundaylar roʻyxatini yana davom ettish mumkin. Xoʻsh, nega koʻpaygandan koʻpayib boryapti manfaat qullari?

Begonlarni qoʻya turaylik, farzandidan manfaat kutadigan ota-onalar ham bor. Shunday odamni bilaman. Pul, mol-dunyo xirsi iskanjasida koʻngil koʻzgusi kirlanib ketgan. “Yana boʻlsin!”, “Koʻpaysin!” vasvasasida diydasi qotib ketgan nafs bandasining uylanish yoshidagi oʻgʻli boylik ilinji yoʻlida qurbon boʻldi. Qandaydir taqiqlangan tovarlar savdosi bilan shugʻullanishi haqida gap yurardi elda. Oʻsha olamning korchalonlari oʻzlariga raqobatchi tadbirkorni sindirish uchun uning farzandidan foydalanishadi. Kechki payt qayerdandir ovqatlanib kelgan yigitning, tongga yaqin joni uziladi. Farzandini yoʻqotish ham otaga zarba boʻlmadi. Aksincha, bu yoʻlga yana bir oʻgʻlini boshladi. Neajabki, ikkinchi oʻgʻilga ham “hujum” uyushtirildi. “Biznesmen” niqobi ortiga biqingan jinoyatchilar davralarining “guli” boʻlgan qizni raqobatchi sheriklarining oʻgʻliga roʻbaroʻ qilishdi. Shart shunday edi: “Bu qizga uylanmasang, qamalib ketasan!” Manfaat quli uchun or, nomus, farzand taqdiri, oila shaʼni degan narsalar mutlaqo begona ekan. Shuning uchun ota oʻgʻlini raqobatchi hamkorlarining jazmaniga uylantirishdan ham toymadi...

FARZANDIDAN TA'MA QILADIGANLAR

Bu haqida eshitish bugunimizga kelib odatiy holga aylanib qoldi. Bolalarini mavqeyi, kasb-u kori, umuman, topadigan puliga qarab muomala-munosabat qiladigan ota-onalarni koʻrganda yurak uvushadi. Dil zirqiraydi. Ammo taassufki, undaylar bor, hatto hayratlanmaydigan darajada koʻp ular...

— Ota-ona farzandini taʼmasiz, faqat farzandi boʻlgani uchun yaxshi koʻradi, deyishadi. Men ota-onamning biz bolalariga munosabatini unday taʼriflay olmayman, — deydi Baxtiyor ismli yigit. — Ota-onamga pul topib olib borganimda boshqacha muomala qilishadi, ishim yurishmay qolganida darrov munosabatlari oʻzgaradi. Alam qilarlisi, tushkunlikka tushib,

chorasizlikdan sinib qolganimda, begonalar yaxshi gaplar, koʻngil koʻtarish bilan ogʻir kunimga yaraydi-yu, meni dunyoga keltirgan ota-onamning qovogʻi hech ochilmaydi. Qiyin kuningda oʻzingnikilar yuragingga oʻq otsa, begonalardan oʻpkalashga na hojat...

Biz farzand ota-onani aybdor qilishga haqli emas, deyishga oʻrganib qolganmiz. Negadir farzand va ota-ona munosabatiga faqat bir yoqlama fikr bildiramiz. Lekin ota-ona degani avliyo yoki xatolardan forigʻ farishta degani emas-ku?!..

“Duolarim ijobat boʻlmayapti”, deb zorlanamiz. Qanday ijobat boʻlsin, feʼlimizda kibr hukmron boʻlsa. “Alloh soʻraganimni bermayapti” deb, iddao qilamiz. Qanday bersin, soʻrovimiz iltijo emas, TALAB boʻlsa. “Ishlarim yurishmayapti”, deb yozgʻiramiz. Qanday yurishsin, atrofdagilarni unutilib, “faqat menga boʻlsin!” deb turgan boʻlsak. “Tinmay yuguraman, topganimda hech baraka yoʻq” deb noliymiz. Yaqinlarimiz, jon-jigarlarimiz kuniga yaramaymiz, jilla qursa, oyda bir xabar olgani hafsala qilmaymiz, qanday baraka qoʻnsin topganimizga? Koʻnglimizda xotirjamlik yoʻq, ruhimizga halovat begona. Nega? Chunki boshqalarning koʻngli bilan hisoblashmay qoʻyganmiz. Inson koʻngli misli Kaʼbatulloh ekanini bilmaymiz. Koʻngil shishadan ham nozik, u bir sinsa, hammasi tamom boʻlishini tushunmaymiz. Bizga hatto bularning qizigʻi ham yoʻq. Hayotimizni “oʻzim boʻlay” iborasi chigallashtirib yuboryapti. Biz esa oʻzimizni qoʻlga olib, amallarimizni aql tarozisida oʻlchab koʻrish oʻrniga manfaat ketidan ovora-yu sarsonmiz...

Vafodorlik, sadoqat, ahdga sodiqlik, rostgoʻylik kabi fazilatlar borgan sari noyoblashib boryapti. Munofiq, yolgʻonchi, vaʼdaboz, bevafoqlarga yoʻliqaverib, hammadan shubhalanadigan, odamlarga ishonmaydigan boʻlib qolyapmiz. Bir-birimizni aldash odatiy holga aylanib qolgan. Yolgʻon dunyoning yolgʻonlariga koʻnikib boryapmiz. Bozorda sotuvchi xaridorni aldab, tarozining “nagʻma”siga ishonitirib, “jigʻildoni”ni toʻldiryapti. Koʻchada mehnatga boʻyni yor bermas yalqov ota-onasiz yetimligi, singlisining xastaligini aytib, odamlarni avrab, tilanchilik qilyapti. Behayo qiz shoʻrpeshana yigitni aldab-avrab, unga turmushga chiqiyapti...

Ha, odamzod aldovlarga koʻnikib qolyapti. Odam bolasi aldovlarga ishonib qolyapti. Eʼtibor beryapsizmi, hamma inson tabiatiga xos boʻlmagan xislatlar maqsadi bir ildizga — manfaatga taqalyapti. Manfaat istagi nafsga kuch berib, aqlimizni oʻtmaslashtiryapti. Moddiyat istagi ustun kelib, oʻzligimizdan uzoqlashtiryapti. Bu dunyoda pul, mol-dunyo, manfaat bilan bitmaydigan ishlar ham borligini mulohaza qilmayapmiz. Kun kelib, bu faromushlik jabri bizga qimmatga tushmaydimi? Siz nima deysiz, aziz suhbatdosh?

Umida AZIZ,
jurnalist

Oilaning mustahkam bo'lishida barcha oila a'zolarining o'rni va mas'uliyati bor. Ayniqsa, o'zbek oilalarida qaynonaning o'rni alohida ahamiyatga ega. U oila farzandlarining odob-axloqli qilib tarbiyalash, ota-bobolarimiz, ena-momolarimizdan qolgan milliy urf-odatlar va milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish va singdirishda katta o'rin tutadi.

Negaki qaynona hayotiy saboqlarga boy tajribali ona, farzandlar, kelin-kuyov va nevaralar tarbiyachisi, qadriyatlarni saqlab hamda avaylab kelayotgan shaxsdir.

Har kimga ham qaynona bo'lish nasib etavermaydi. Xalqimiz bir qator maqollarda aynan qaynona haqida so'z yuritgan: "Qaynonam – uyimdagi durdonam", "Qarisi bor uyning parisi bor", "Qaynonali kelin qarqara kelin", "Qaynonasiz kelin masxara kelin". Bu hikmatlarning har birida chuqur mazmun-mohiyat mujassam.

Qaynona ko'rmagan kelin vaqti kelib, bu baxtga muyassar bo'lganida, kutilmagan oilaviy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishni bilmay, shoshib qolishi, buning natijasida oila sha'ni va obro'siga putur yetkazishi mumkin. Ya'ni hissiyotlarga berilib, farzandining baxtiga bilib-bilmasdan chang solib, el ichida yillar davomida yig'gan obro'siga putur yetkazishi hech gap emas.

Xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytmagan. Kelinlar qaynonasidan andaza olib, yo yaxshi qaynona, yoki uning aksi bo'ladi.

Yaqin o'tmishga nazar solaylik: yangi kelinni yangi joy, yangi oilaga moslashishi oson kechmagan. Yosh kelinchak ertalab hammadan oldin uyg'onib, katta hovli va

tashqarini, hatto qo'shnilarning eshigi tagigacha supurardi. Xonadon egalari uyg'ongunga qadar nonushtaga hozirlik ko'rar, qaynona va qaynota uchun suv isitib oftoba bilan qo'llariga quyar va shu bahona ularning duolarini olardi. Dasturxonni hozirlab, barcha xonadon a'zolariga choylar uzatib, ehtirom va hurmat ko'rsatardi.

Kelinchak kun davomida uylarni tozalash, kirlarni yuvish bilan birga tushlikka zamonaviy gaz plitalarida emas, o'chog'da, qozon tagiga olov yoqib, shirin ovqat tayyorlardi. Mehmonlar va xonadon egalari uchun san'at asari darajasida tayyorlangan quroq dasturxonlar ishlatilar edi.

Birinchi bo'lib dasturxonga, albatta tandirda pishirilgan non kelardi. Bu nonni pishirish uchun kelinlarimiz erta tongdan turib, xamirturush bilan xamir qorib, tindirib, ko'pchigach, nonni yasab yopishardi.

Non pishirishning o'ziga xos odobi, san'ati va mahorati

bo'lgan. Chiroyli va mazali nonni pishirishda, oilada besh va undan ortiq yil kelinlik xizmatini qilgan kelinlarimiz uddasidan chiqar edilar.

Hozir esa xamma narsa tayyor, uyqudan qolishning zarurati yo'q, "Otang bozor, onang bozor" deganlaridek, tayyor issiq non uyingiz tagiga kelib turibdi. Ammo momolarimizning g'o'zapoya bilan oqartirilgan tandirlarda yopgan nonlariga yetmaydi-da. Ayniqsa, qizarish arafasida bo'lgan nonlar yuziga suv urganda, atrofga taraladigan ajoyib hidni ta'riflab bo'lmaydi. Hammadan ham tandir boshida endigina uzilgan nonlarni sovuq suv urib, ushatishganda yesangiz, yeb to'yimsiz. Uni yeb ko'rgan odam Vatan hidini, mehr va muhabbat hidini, oila sog'inchini his etadi, deb ikkilanmay aytish mumkin. Manaman degan zamonaviy novvoyxonalar, non fabrikalari va sexlarda pishirilgan nonlar shunday unutilmas tuyg'ularni berishga qodir emas.

Supa ustida yonboshlab o'tirgan qaynonaning nazaridan kelinning hech bir harakati chetda qolmasdi. Uning harakatiga qarab, ko'rpachani, dasturxonni to'g'ri to'shsh va mehmon kutish odobidan maslahat berar, kerak chog'da nasihat qilardi. Unning elash tartibi va qoidasi, xamir qilish mahorati, hatto hovlini supurishda qayerdan qayerga qarab supurish lozimligi, kir yuvishda katta qozonda suv isitish jarayonida ro'molchaga o'chog'dan yoki tandir ichidan toza kulni olib bog'lab, qozonning ichiga solish, buning natijasida suv yumshoq bo'lib yuviladigan matolar yangi va toza tusga kirishi haqida tushuncha berar edi.

Go'daklarning parvarishi bo'yicha yosh kelinlar uchun qaynonaning maslahati beqiyos bo'lgan. Chaqaloqni beshikka chiroyli urf-odatlarimizni bajarib yotqizish, beshik ichidagi har bir anjomning o'ziga xos mohiyati borligini tushuntirish, chaqaloqning

qo'llarini, oyoqlarini to'g'ri qo'yib yo'rgaklash, beshikdan chiqarganda bolaning "qanotlari" yopishib qolmasin, deb yog'lar surtib uqalash, chaqaloq uchun mo'ljallangan, momolarimiz qo'llagan jismoniy tarbiyaning bajarish usullari haqida aynan qaynona tushuncha va maslahat beradi.

Bolani beshikka yotqizganda momolarimizdan meros ezgu niyatlar va tilaklar bitilgan alla aytib uxlatish go'dakka o'zgacha orom baxsh etadi. Bu qadim qo'shiq ila o'sgan boladan yomonlik, yovuzlik chiqmasligi aniq.

Qaynonalar hamisha yosh kelinlar yonida bo'lib, unga oila baxtining sir-asrorlari, ro'zg'or yumushlaridan saboq bersa, er-xotin o'rtaqidagi hurmat va ehtirom, farzand tarbiyasining asoslari, qarindosh-urug', quda-anda hamda qo'shnilar bilan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda ustozlik qilsa, bu oila istiqbolida katta ahamiyat kasb etadi.

Zamonlar o'zgaraveradi, yoshi ulug'larning o'rniga yoshlar keladi, avlodlar almashadi, ammo o'zbek xalqining buyuk davlati, kuch-qudrati, g'ururi va ori bo'lgan o'zbek oilasini onalar – qaynonalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Oilalarimiz mustahkam bo'lsin, qaynonalarimiz uyimiz to'ridan joy olsin. Hech bir oliy o'quv dargohi kelinlik, rafiqalik va ona bo'lish san'atini qaynona kabi o'rgata olmasligini unutmaylik va o'zbek oilalarida qaynona maktabi abadiy bor bo'lsin, deb niyat qilaylik.

Hozirgi kunda, kelinlar to'ydan keyin alohida yashayman, oilamni o'zim xohlaganday boshqaraman, deb mayli, ko'ksiga ursinlar, boshqa yashab ko'rsinlar. Ammo ko'p o'tmay, turmush o'rtog'ining uyga kech kelishi, oiladan uzoqlashishi, farzandlar oldida, rafiqasi oldida erlik, otalik burchini chiroyli bajarmayotganidan norozi bo'lgan kelinlar bilsinki, dastlabki besh yilda baxtli oila bo'lish sirlarini egallab olgunga qadar, qaynonaning kelinlarga beradigan

ma'naviy, hayotiy, ayollik va onalik saboqlari, buvijon sifatida yordami zarurligiga albatta iqrar bo'ladilar.

Tamara MAMANOVA,
Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassisi



SHOHSUPA

(xabarlar)



OG'IR ATLETIKA



Tarkibidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham o'rin olgan og'ir atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi navbatdagi o'quv-mashg'ulot yig'inini olib bormoqda. Chirchiq shahridagi bazada o'tkazilayotgan yig'inga erkaklar va ayollar terma jamoamizning asosiy va zaxira sportchilaridan iborat 20 nafar sportchi jalb qilingan. Mashg'ulotlar 4–14-dekabr kunlari Qatarda bo'lib o'tadigan reyting musobaqasiga tayyorgarlikning asosiy bosqichi hisoblanadi.

QILICHBOZLIK



Dunyoning bir qator shaharlarida qilichbozlikning barcha yo'nalishlarida yoshlar o'rtasidagi jahon kubogi bosqichidan o'rin olgan bahslar o'tkazildi. Toshkent shahri sablya bo'yicha qizlar o'rtasidagi bahslarga mezbonlik qildi. Unda yurtdoshlarimiz ham yakka, ham jamoaviy dasturda oltin medallarni qo'lga kiritishdi. O'zbekiston terma jamoa a'zolari Herrera Lara Luiza Fernanda va Samira Shokirova yakka bahslarida oltin hamda bronza medalni qo'lga kiritdi. Jamoaviy bellashuvlarda O'zbekiston terma jamoasi barcha raqiblarni yengib, yakunda shohsupaning birinchi pog'onasidan joy oldi va jahon kubogiga sazovor bo'ldi.

Tunis shahri sablya bo'yicha yigitlar o'rtasidagi bahslarni o'zida qabul qildi. O'smirlar o'rtasida jahon chempioni hisoblangan hamyurtimiz Zuhridin Qodirov yakka dasturda kumush medalga sazovor bo'ldi. Zuhridin, shuningdek jamoaviy dasturda Islombek Abdazov, Musa Aymuratov, Azizbek Dauletazarov bilan shohsupaning ikkinchi pog'onasidan joy oldi. Peru mezbonlik qilgan shpagachi qizlar bahsida esa Shahzoda Egamberdiyeva, Dilnaz Murzatayeva, Bibimayam Saparovan iborat triomiz jamoaviy dasturda bronza medal bilan taqdirlandi.

PROFESSIONAL BOKS



Poytaxtimizdagi "Humo Arena" majmuasida tashkil etilgan katta professional boks oqshomi Butunjahon boks ittifoqining (WBC) 61-konvensiyasi doirasida o'tkazilgan tadbirlarning eng so'ngisi bo'ldi. Jahon boksining yorqin vakillari guvohligida o'tgan boks kechasining markaziy jangida hamyurtimiz Bahodir Jalolov Janubiy Afrika Respublikasi vakili Kris Tompsonga qarshi ringga ko'tarildi. 10 raundga mo'ljallangan jangning ilk raunddayoq Bahodir raqibini nokautga uchratdi va professional boksda 14-jangida 14-g'alabasini tantana qildi.

FUTBOL



Milliy terma jamoamiz 2026-yilgi jahon chempionati saralash bosqichi doirasidagi ilk o'yinini Turkmaniston terma jamoasiga qarshi safarda o'tkazdi. "Ashxobod" stadionida o'tgan o'yinning 44-daqiqasida mezbonlar vakili Meylis Durdiyev hisobni ochdi. Ikkinchi bo'limning 58 va 77-daqiqasida Otabek Shukurov raqib darvozasini ishg'ol etgan bo'lsa, 90+1 daqiqada Eldor Shomurodov terma jamoamizning uchinchi goliga mualliflik qildi. Terma jamoamiz "E" guruhidagi ikkinchi o'yinini poytaxtimizdagi "Bunyodkor" stadionida Eron termasiga qarshi o'tkazdi. Ushbu uchrashuvda jangovar durang qayd etildi – 2:2.

Poytaxtimizdagi "Alpomish" sport majmuasida dzyudo bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida Osiyo chempionati o'tkazildi. Dastlab o'smirlar terma jamoamiz umumiy hisobda g'oliblikka erishgan bo'lsa, so'ng O'zbekiston yoshlar terma jamoasi qit'a miqyosida birinchi o'rinni egalladi. Ushbu muvaffaqiyatga Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) dzyudochilari ham o'z ulushlarini qo'shishdi.



YOSHLARIMIZ QIT'A MIQYOSIDA BIRINCHI

Ta'kidlash joiz, mazkur birinchiliklar aslida Livan davlatida o'tkazilishi kerak edi. Ammo ushbu mamlakatga tutash hududlarda siyosiy vaziyatning beqarorligi tufayli Osiyo dzyudo federatsiyasi chempionatni boshqa davlatda tashkil etish qarorini qabul qildi va O'zbekiston tarixda ilk marta dzyudo bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionati mezbonligiga erishdi.

Chempionatda qit'aning 20 ga yaqin davlatidan 350 nafardan ziyod yosh mahoratli sportchi ishtirok etdi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston jamoalari musobaqada katta tarkib bilan qatnashgan bo'lsa, Mo'g'uliston 16, Hindiston, 14, Xitoy Taypeyi, Eron, Janubiy Koreya jamoalari 13 nafardan iborat sportchi bilan chempionlik uchun harakatlandi. Mamlakatimiz sport sharafiga 20 nafar o'smir hamda 18 nafar yosh dzyudochi himoya qildi.

Bellashuvlarni o'smirlar boshlab berishdi va bahslar juda qiziqarli kechdi. O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi bahslarni ko'tarinki ruhda boshladi va birinchi kundanoq 4 ta oltin, 2 ta kumush hamda 4 ta bronza, jami 10 ta medalga sazovor bo'ldi. Ikkinchi kun bahslarini ham o'smirlarimiz muvaffaqiyatli o'tkazib, 3 ta oltin, 3 ta kumush va bitta bronza, jami 7 ta medalni qo'lga kiritishdi. Jumladan, qizlar o'rtasida -44 kg vazn toifasida tatamiga chiqqan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Laziza Haydarova barcha raqiblarini mag'lub etib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek, qizlarimizdan Umida Qo'ldosheva (-40 kg), Zarina Jamolova (-48 kg), Rayhona Mamatova (-52 kg) va Nigina Saparbayerova (-63 kg), yigitlarimizdan Hakimjon Mahkamov (-90 kg) va Elnur Xolmo'minov (+90 kg) o'z vazn toifasi bo'yicha bellashuvlar g'olibiga aylandi.

Yigitlar o'rtasidagi bellashuvlarda qatnashgan MVSM vakili Inoyat Telmanov ham qit'a birinchiligining oltin medalini qo'lga kiritishga juda yaqin bordi. Biroq... -66 kg vazn toifasida tatamiga chiqqan bu sportchimizdan so'nggi final bahsida omad yuz o'girdi va Osiyo chempionatining kumush medali bilan kifoyalandi. Shuningdek, hamyurtlarimizdan Sabina Azamatova (-48 kg), Aselxan Aralbayeva (-57 kg), Azamat Ablakulov (-73 kg) va Behruzbek Rustamboyev (-81 kg) qit'a birinchiligining kumush medaliga sazovor bo'ldi. Yarim finalgacha muvaffaqiyatli bellashgan dzyudochilarimiz Maxfira Ro'ziboyeva (-44 kg), Mushtariybegim Afzalova (+70 kg), Yunusbek Shavkatov (-50 kg), Hasanboy Elmurodov (-55 kg) va Oybek Rajabov (-66 kg) ham shohsupaga ko'tarilib, chempionatning bronza medali bilan taqdirlandi. Shu tariqa, 7 ta oltin, 5 ta kumush va 5 ta bronza medallarni qo'lga kiritgan O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi 15 mamlakat orasida umumjamoahisobida 1-o'rinni egalladi.

Osiyo chempionatining yoshlar o'rtasidagi bahslarida hamyurtlarimizdan Rustam Shorahmatov (-100 kg), Mahmudjon Mahsudov (+100 kg), Gulhoyo Jo'rayeva (-52 kg), Farangiz Rejepova (-57 kg), Barchinoy Qodirova (-70 kg), Shirinjon Yo'ldosheva (-78 kg), Fotima Quromboyeva (+78 kg) o'z vazn toifalari bo'yicha bahslar

yakunida oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Zamahshari Bekmurodov (-50 kg), Muhammadyahyo Muhammadjonov (-66 kg), Shahzodxo'ja Sharipov (-81 kg) kumush medal bilan taqdirlandi. Shuningdek, Shahnoza Husanova (-63 kg), Mohlaroyim To'xtamishева (+78 kg), Hojiakbar Toshev (-73 kg), Ahror Ziyodullayev (-81 kg), Alisher Samanov (-90 kg) va Abdulloh Xudoyorov (+100 kg) shohsupaning uchinchi pog'onasidan joy oldi. 7 ta oltin, 3 ta kumush va 6 ta bronza, jami 16 medal jamg'argan O'zbekiston yoshlar terma jamoasi ham o'smirlarimiz kabi qit'a birinchiligini umumjamoahisobida 1-o'rinni qo'lga kiritish bilan yakunladi.

Shu tariqa o'smir va yosh dzyudochilarimiz muxlislar ishonchini oqlashdi – 2023-yilgi mavsumni muvaffaqiyatli yakunlashdi. Endi navbat katta dzyudochilarimizga 2–3-dekabr kunlari Yaponiyaning Tokio shahrida dzyudo bo'yicha "Katta Dubulg'a" turniri bo'lib o'tadi. Mazkur musobaqa joriy yil hisobidan so'nggi xalqaro turnir bo'ladi. Unda dunyoning 77 davlatidan 400 nafardan ziyod sportchi qatnashishi kutilmoqda. O'zbekiston dzyudo federatsiyasining ma'lum qilishicha, Tokio "Katta Dubulg'a" sida erkaklar terma jamoamiz asosiy tarkibda ishtirok etadi. Ular safidan MVSM vakillari Sardor Nurillayev (-66 kg) va Davlat Bobonov (-90 kg) ham o'rin olgan. Qizlarimizdan esa mazkur turnirda faqat MVSM vakili Gulnoza Matniyazova (-70 kg) qatnashadi.

TOKIO "KATTA DUBULG'A" SIDA QATNASHADIGAN TARKIB:

Erkaklar:

-60 kg: Dilshod Baratov
-66 kg: Sardor Nurillayev (MVSM)
-73 kg: Murodjon Yo'ldoshev
-73 kg: Obidxon No'monov
-81 kg: Muso Sobirov
-90 kg: Davlat Bobonov (MVSM)
-100 kg: Muzaffarbek To'rayboyev
+100 kg: Alisher Yusupov
+100 kg: Shohruh Baxtiyorov

Ayollar:

-70 kg: Gulnoza Matniyazova (MVSM)





O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xizmatchisi Artur Guliyev 23–27-avgust kunlari Germaniyaning Duysburg shahrida baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida 200 metr masofani 38,729 soniyada bosib o'tib, oltin medalni qo'lga kiritgan edi. Quvonarlisi, qahramonimiz Vadim Menkovning 2010-yilda erishgan natijasidan 13 yil o'tib, cho'qqini qaytadan zabt etdi. To'g'ri, ular bosib o'tgan masofa turlichadir, ammo jahon chempionatining oltin medalini yurtimizga olib kelinishini inobatga oladigan bo'lsak, natija bir xil deyishimiz mumkin.

uchun ham doim olg'a borishdan to'xtamaymiz.

SUV STRESSNI OLADI, AMMO...

– Yilning har qanday faslida mashg'ulotlar qat'iy reja ostida o'tkaziladi. Yil o'n ikki oy suvda bo'lish ham juda foydali deb o'ylamayman. To'g'ri, suv insondagi negativ va turli stress holatlarning oldini oladi. Ammo shu bilan birga doimiy bunday holatlarning davom etishi pozitiv energiyani ham tortib oladi. Barcha sport turlari singari ushbu sport turida ham o'ziga yarasha mashaqqatlar bor. Ammo nima bo'lgan taqdirda ham tanlagan yo'nalishim o'zimga juda yoqadi.

insonning yo'lidan turli to'siqlar chiqishi tabiiy. Bunday paytlarda ruhiyatimizni ko'tarib, yo'limizda qat'iy davom etishimiz uchun albatta motivatsiya beradigan shiorlar bo'lishi kerak. Shunda doim "Vaqt cheklangan, imkoniyatlar cheksiz!" deya ta'kidlayman. Inson qo'lidan keladigan har qanday vazifani uddalash mumkin. Buning uchun tinimsiz mehnat va mashaqqatli mashg'ulotlarda toblanish zarur. Iroda, qanoat, sabr va shijoat bo'lsa, eng yuqori natijani ham zabt etish mumkin. Mag'lubiyatsiz tajriba orttirib bo'lmaydi. Tajriba ortsa, insonning o'ziga bo'lgan ishonch ham ortadi.

SONIYANING O'NDAN BIR ULUSHI UCHUN KURASH

– Vaqt o'tgan sari barcha sohalarida yuqoriga o'sishni kuzatyapmiz. Shu bilan birga baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha ham sportchilar juda kuchli jismoniy imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Musobaqalarda ham raqiblar soniyaning o'ndan bir ulushi uchun kurashyapti. Agar biz bundan 10–15 yil oldingi musobaqalarni kuzatsak, g'olib va sovrindorlar o'rtasidagi farq ko'proq bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Aslida suv o'sha, eshkak va qayiq o'sha-o'sha, ammo sportchilarda g'oliblik uchun shiddat kuchaydi.

Yaqinda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarining ham ikki kishilik bahslarida Kamronjon Axtamov bilan birgalikda 500 metr masofani zabt etishga harakat qildik. Ammo aytganimdek, soniyaning o'ndan bir ulushi sabab 4-o'rinda finish chizig'iga yetib keldik. 2018-yil bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida Elyorjon Mamadaliyev bilan 200 metr masofani ikkinchi o'rinda zabt etgan edik. O'shandan keyingi marra albatta oltin medal bo'ladi, deya niyat qildik. Biroq...

VAQT CHEKLANGAN, IMKONIYATLAR CHEKSIZI

– Har bir insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'ladi. Unga erishish uchun otlangan

QILINGAN ISHLARI MANGU YASHAYDI

– Inson mangu yashamaydi. Shu bois doimiy chempionlikni saqlab qololmaymiz. Ammo ortimizda qoldirgan natijalarimiz, odamiyligimiz va sadoqatimiz bilan mangu bo'lishimiz mumkin. Men bolaligimda havas qilganim, Vadim Menkovning ko'rsatgan natijalari tahsinga loyiq. Aslida u olimpiada chempioni ham bo'lishi kerak edi. Chunki Vadim bunga munosib! Hali-hanuz unga o'xshagan inson bo'lishni xohlayman va doim o'zimga shuni ta'kidlayman. Ortimizda yetishib kelayotgan yosh izdoshlarimga aytmoqchimanki, avvalo yaxshi inson bo'lish kerak. Chunki sport vaqtinchalik, chempionlik ham doimiy emas. Ertaga ham bizni yaxshi so'zlar bilan eslashlari uchun, avvalo kapitan Vadim Menkov singari kamtarin va kamsuqum bo'lish kerak, deb o'ylayman. Yosh sportchi sifatida unga havas qilib, ortidan ergashganim menga yuqori natijalarni olib kelmoqda. Ustozlarning o'g'itlariga amal qilish, bizdan oldingi sportchilarning hurmatini joyiga qo'yish va ota-onaning duosini olib yurish bilan yaxshi natijalarga erishish aniq.

«Vatanparvar» muxbiri Sherzod SHARIPOV yozib oldi.

O'N UCH YILLIK SUKUTNI BUZIB...

Yozning saratoni-yu, qishning qahratoniga qaramasdan, "Toshkent dengizi"da mashg'ulotlarini davom ettirayotgan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha sportchilarni uchratish tasodif emas. Ular murabbiylarning ko'rsatmalari asosida tinimsiz qilingan jismoniy va psixologik mashg'ulotlari natijasida chempion bo'lib yetishmoqda. Keling, Arturning faoliyat yo'li, "Toshkent dengizi"da o'tgan bolaligi va ustozlari haqidagi hikoyalari quloq tutamiz...

OTA-ONAM – MOTIVATORIM

– Barcha bolalar singari mening ham bolaligim beg'ubor va sarguzashtlarga boy bo'lgan. O'rta Chirchiq tumanining markazi bo'lgan To'ytepa shahrida tug'ilib, voyaga yetdim. Maktabda a'lo baholarga o'qiganman. Oilada ota-onam bilan munosabatlarimiz do'stona bo'lib, ular bilan har qanday mavzuda bimalol gaplashganman. Otamning bo'sh vaqtida baliq oviga borardik. Qarmoqni suvga tashlab, o'zimiz kelajak haqida soatlab suhbatlashganmiz. Bolaligimda otamning bo'sh vaqtini kutgan bo'lsam, endi o'zim vaqt topolmayman.

Ammo oilaviy rishtalar barcha tuyg'ulardan ustun. Ota-onam mening motivatorim. Ko'nglimda nimaiki bo'lsa, boricha otam bilan hamfikir bo'laman. Yutuqlar va mag'lubiyat alamlari, shaxsiy hayot, faoliyatimga oid masalalarda ota-onamning maslahatlariga doim ehtiyoj sezaman.

VADIM MENKOVDEK BO'LISHGA INTILGANMAN

– Bolaligimdan Vadim Menkovdek sportchi bo'lishga intilganman. Uning erishayotgan natijalariga juda havasim kelardi. U bilan bitta mahallada yashaganimiz bois oilamiz bilan Vadimning oilasi o'rtasida oilaviy bordikeldi munosabatlari bor edi. Vadim meni "Toshkent dengizi"ga olib kelganida qayiqda o'z muvozanatimni tutib olishim uchun bir necha daqiqa kerak bo'lgan edi. Buning ustiga chempion bilan birgalikda qayiqqa chiqish men uchun juda katta voqea bo'lgan. O'shanda Vadim agar menda ushbu sportga xohish bo'lsa, o'zi murabbiylik qilishi mumkinligini aytgan. Mana, 16 yildirki haligacha suvni tark etmadim. Hayotim va faoliyatimda birinchi murabbiy otam bo'lsa, ikkinchisi Vadim.

Keyinchalik Yuriy Alekseyevich, Panomaryov kabi o'z kasbining ustalaridan ta'lim va tarbiya oldim.

O'N UCH YILLIK SUKUTNI BUZIB...

Vadim Menkov 2010-yilda Polshaning Poznan shahridagi jahon chempionatida 1 000 metr masofani birinchi bo'lib zabt etib, jahon chempionligiga sazovor bo'lgan edi. Oradan 13 yil o'tgan bo'lsa-da, ushbu sport turi bo'yicha oltin medal yurtimizga olib kelinmadi. O'zim havas qilgan ustozimning natijasini takrorlab, 13 yillik sukutni buzganimdan baxtiyorman. Aslida Vadimdan ko'p narsa o'rgandim. Avvalo, uning odamiyligi va kamtarinligini e'tirof etaman. Qolaversa, undagi shijoat va o'ziga bo'lgan ishonch meni doim lol qoldirib keladi. Bolaligimdan unga o'xshashni xohlaganman. Nafaqat sportchi sifatida, balki insoniylik nuqtayi nazaridan ham Vadim Menkov juda oriyatli inson.

Boshqa davlat sportchilarida o'zimiznikidek vatanparvar va fidoyi bo'lganlarini ko'rmadim. Biz musobaqaga kirishar ekanmiz, ortimizda ota-onamiz qo'llab turishi, murabbiylarning mehnati va xalqimiz ishonchi turganligini his qilamiz. Shuning

HARBIY XIZMATCHI ETIKASI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomida "Harbiy xizmatchi askariy birodarlikni e'zozlashga, o'z hayotini ayamasdan o'rtoqlarini xavf-xatardan qutqarishga, ularga so'z va ish bilan yordam berishga, har birining or-nomusi, qadr-qimmatini hurmat qilishga, o'ziga hamda boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'pollik va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslikka, ularni nолоyiq qilmishlardan tiyib qolishga majburdir", deb yozib qo'yilgan.

Aynan shu kabi majburiyatlar har bir harbiy xizmatchini odob-axloqini, tarbiyasini va albatta etikasini shakllantiradi. Albatta, hech bir inson jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o'sadi, ulg'ayadi, hayot kechiradi, o'zining butun hayoti va faoliyati davomida har xil toifadagi ko'plab insonlar bilan, katta-yu kichik mehnat jamoalari bilan muloqotda bo'ladi. Bu insonning o'z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi.

Jamoa bo'lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an'ana va qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan obyektiv aloqadorlik, ya'ni ijtimoiy munosabat xulq-atvor, odob, xatti-harakat prinsiplari va normalarining majmuasi axloqning mazmun-

mohiyatini tashkil etadi. Binobarin, axloqning manbayi jamiyat ehtiyoji va manfaatlaridan iborat bo'ladi.

Axloq ijtimoiy ongning eng qadimgi shakllaridan biridir. Davr o'zgarib borgan sari har qanday hodisa kabi axloq ham o'zgaradi, rivojlanadi, takomillashib, ma'naviy madaniyatning ko'rinishlaridan biriga aylanib boradi.

Shuningdek, axloqiy masalalarga izchil yondashish natijasida o'tmish axloqiy nazariyalari hal qila olmagan hodisalarni, xususan axloq shakllarining tarixan o'zgaruvchanligi, bir ijtimoiy formatsiyaning o'zida turlicha bir-biriga mutlaqo zid axloq shakllarining mavjud bo'lishi, axloq normalarining jamiyatdagi huquqiy-ma'muriy va boshqa ijtimoiy normalar bilan o'zaro munosabati kabilarni izohlashga imkon berdi.

Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" asarida ezgulikni o'zgalar manfaatini o'z

manfaatidan ustun qo'yishda, odamlarga qayishishda ko'radi. Yovuzliklar ichida yolg'onni qattiq qoralaydi: "Yolg'on gapirmoq ham xanjar zarbi kabidir: jarohati tuzalsa-da, izi qoladi".

Allomalar qadrlab e'tirof etgan insoniy fazilatlar va xislatlar harbiy xizmatchilarda shakllangan bo'lsa, nur ustiga nur bo'ladi. Zotan, harbiy xizmatchining ezgu fazilatlariga ega bo'lishi, beg'arazlikni qadrlashi, odamlarga doim ezgulik yaxshilik ulashishi – bu uning haqiqiy Vatan posboni, mard va jasur harbiy xizmatchi ekanligidan dalolat beradi. Harbiy xizmatchi hammaga bir xilda odilona qarab, hech kimni bir-biridan ajratmasligi kerak. Qayerda g'arazgo'ylik bo'lsa, o'sha joyda adolat qaror topmaydi, qonun ustuvorligi ta'minlanmaydi. Beg'arazlik – qonun ustunligini ta'minlovchi yuksak axloqiy sifat bo'lib, adolatli jamiyat qurishning ma'naviy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Bu hayotiy tamoyilni u doim yodda saqlashi zarurdir.

Harbiy xizmatchi haqiqatni yolg'ondan ajrata bilish asosida adolatni qaror toptirish fazilatiga ega bo'lishi lozim. Sohobqiron Amir Temur "Kuch – adolatda", "Haqiqat – sihat-salomatlik, haqiqat – tartib, haqiqat – adolat", degan g'oya asosida ish ko'rgani bejiz emasligini tushunishi kerak.

Harbiy xizmatchi o'z burchidan kelib chiqqan holda xalqi va Vatani olida vijdonli hamda sadoqatli bo'lishlari shart. Zero sadoqat harbiy xizmatchilarning vijdoniga xos asosiy xususiyat sanaladi.

Vijdon esa harbiy xizmatchilarning o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi, erishgan muvaffaqiyatlardan o'zini yuqotmasligi, ichki jihatdan qoniqish hosil qilishi, o'z shaxsiy manfaatlaridan kechib, o'zini jamiyat manfaatlarini yo'lida baxshida etishi demakdir.

Harbiy burch esa harbiylar uchun muhim ma'naviy mezon bo'lib, ularning barcha xatti-harakatlari, Vatanga sadoqati, o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishlari, jangovar mahoratlarini muntazam takomillashtirishlari, Umumharbiy nizomlar va Harbiy qasamyod talablarini so'zsiz bajarishlaridir.

Bir so'z bilan aytganda, yuqorida tilga olingan sifat va fazilatlarining barchasi harbiy xizmatchilarga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Zotan, Vatan himoyasi, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligini, xalqning tinch va osoyishta hayoti hamda xavfsizligini ta'minlash mas'uliyatli ekanligi bilan birga sharaflari hamdir.

Podpolkovnik Vladimir LIXANOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o'qituvchisi



Hozirgi davrda har qanday sohada zamonaviy kadrlarning professionallik darajasiga jiddiy talablar qo'yilmoqda. Shunday ekan Qurolli Kuchlar tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar ham nafaqat o'z kasbini chuqur bilishi, balki shu bilan birga yuksak intellektual salohiyatga va keng dunyoqarashga ega bo'lishi, o'z bilimlari hamda tajribasini nostandart vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llay olishi, safdoshlari bilan samarali muloqot o'rnata olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

NOTIQLIK MAHORATI



Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida bejiz "Erdam boshi til", ya'ni "Odobning boshi til" maqoli keltirilmagan. Ushbu maqol turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasida amal qilgan yetakchi omil – inson odobining boshlanishi tilda (*nutqda*) ko'rinadi, deyilgan. Nutq odobi borasida qadimiy turkiy xalqlar, jumladan o'zbeklar amal qilgan asosiy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar va jamoa normalari qadimiy turkiy til, eski o'zbek tilida yozilgan ba'zi yozma obidalarda yaxshi saqlanib qolgan. Masalan, Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asarlarida buni ko'rish mumkin. Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutqiy madaniyat, nutq san'ati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasida boy va noyob merosi mahorat bilan umumlashtirilgan.

Boy adabiy merosimizda til, nutq haqida ko'plab fikrlar keltirilgan bo'lib, ulardan bir necha misollar keltiramiz: "Tilni, so'zni qadrla, uni hurmat qil" ("*Xamsa*"), "Kishining so'zi (*nutqi*) uning aqliy kamolotidan darak beradi" ("*Nazm ul-javohir*"), "So'zlaganda diling bilan tiling bir bo'lsin. Chunki dildagi gap tilga chiqadi" ("*Arbain*"), "So'zlaganda o'ylab so'zla, tushunib, bilib gapir, so'zni ko'ngilda pishirmaguncha tilga keltirma" ("*Mahbub ul-qulub*"), "Yaxshi, ezgu so'z (*nutq*) kishiga obro', baxt keltiradi. Ezgu so'zli bo'l" ("*Nazm ul-javohir*"), "Tildan tuhmat uchun foydalanma. Tuhmatchidan qoch, undan nafratlan" ("*Mahbub ul-qulub*dan"), "Gapirganda qaytarig'lardan qoch, chunki ular fikrning ta'sirini susaytiradi" ("*Xamsa*").

Notiqlik qadimgi davrdan beri alohida mahorat, san'at sifatida talqin etib kelinadi. Ayniqsa, jangovar harakatlarni olib borishda, askarlarni bir safda tizishda notiqlikning o'zni beqiyosdir. Shu boisdan nutq madaniyati sohasi va uning maqsadini ommaga yetkazishda o'tmish notiqligining ijobiy tomonlaridan keng foydalanish zarur. Notiqlikning qoidaviy holatlari, taniqli notiqlarning shaxsiy qobiliyat va faoliyatlari nutq madaniyatini tarbiyalashda yaxshigina namunaviy tashviqot quroli bo'lishi mumkin.

Notiqlik san'atida tinglovchi ommani o'ziga tortishga intilish maqsadi birinchi o'rinda turadi. Notiqning nutqi chiroyli, jozibali bo'lishi shart. Chiroylilikka erishish uchun nutqning mazmuniga, mantiqiy kuchiga, jumalalar jimjimadorligiga katta e'tibor beriladi. Nutqning madaniyati va notiqlik san'ati o'xshash tomonlarga ega. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi insonlarning nutqiy faoliyatini foydali, ta'sirchan, o'tkir bo'lishi uchun kurashadi. Inson nutqiy

hayotini o'stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik ham nutqiy odob, nutqiy go'zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlangan holda ish ko'radi.

Mafkuraviy va ilmiy targ'ibot kishilar o'rtasida ma'ruzalar qilish, har xil suhbatlar uyushtirish kabilar orqali amalga oshiriladi. Ana shu ma'ruzalar, suhbatlar va har xil chiqishlar ommaga qay darajada ta'sir qilishi, ularni ishonitirish, kayfiyatlarini o'zgartirish, ularning diqqatini qo'yilayotgan masalaga tortish lektorlardan juda katta mahorat talab qiladi. Chunki har bir nutq ommani ishonitira oladigan, ularga tushunarli, yorqin, ta'sirchan, mantiqli va aniq bo'lgandagina kishilarga o'zgacha ta'sir qiladi. Ana shularni ta'minlagan notiq esa o'z oldiga qo'ygan maqsadiga to'la erishadi.

Milliy armiyamiz safida xizmat qilayotgan harbiylar harbiy xizmatni shunchaki majburiyat emas, balki Vatan va xalq oldidagi, buyuk ajdodlarimiz hamda oila a'zolari oldidagi muqaddas burch deb bilishlari, bunday sharaflari va mashaqqatli vazifani bajarayotganlaridan g'ururlanishlari, Vatan himoyachisi degan nomga dog' tushirmasliklari lozim. Harbiy xizmatchilar nafaqat yuksak jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishlari, shu bilan birga yuksak aql-zakovat, axloqiylik, mustahkam iroda va ruhiy jihatdan yaxshi tayyorgarliklari bilan ajralib turishlari kerak. Buning uchun harbiy xizmatchilar o'zlarining ma'naviyati, tafakkuri va ongiga milliy istiqlol g'oyasini chuqur singdirib, har qanday ma'naviy qashshoqlikka yo'l qo'ymasliklari lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda ham, kundalik hayotda ham komandir (*boshliq*) o'z bo'ysunuvchilari bilan bo'ladigan munosabati va muloqotini yuksak axloqiylik asosida qurishi lozim. Bunda harbiy jamoada shaxsiy tarkib o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlarini chuqur bilish, kasbiy, psixologik va milliy jihatlarni yodda saqlashi, kasbiy axloq-odob qoidalarga, etiket talablariga amal qilishi lozim. Ofitser o'z bo'ysunuvchilariga ta'lim va tarbiya berar ekan, albatta u rahbar, boshliq vazifasini bajaradi. Rahbarlik vazifasini bajarishda undan yuksak harbiy va pedagogik mahorat, munosabat, muomala malakalari hamda nutq madaniyati, o'z kasbiga xos bilim, ko'nikma, malakalar shakllangan bo'lishi kerak.

Podpolkovnik G'ayrat SOBIROV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi katta o'qituvchisi

Yuksak intellektual salohiyatli, keng dunyoqarash va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash bugunning dolzarb vazifalaridan biri. Ayni shu maqsadda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida, respublikamizdagi ta'lim muassasalarida turli ma'naviy tadbirlar tashkil etib kelinmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 259-umumta'lim maktabida "Milliy armiyamiz – Yangi O'zbekistonning mustahkam qalqoni!" shiori ostida o'tkazildi. Unda harbiy xizmatchilar, faxriylar, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti harbiy ta'lim fakulteti talabalari hamda o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi.

Uchrashuv avvalida, ko'p yillar davomida Vatan himoyasida sobit turib, hozirda nafaqada bo'lgan faxriylar tomonidan yoshlarga yillar davomida to'plangan tajriba va malaka samarasi, bosib o'tilgan mashaqqatli, ammo shu bilan birga sharaflı xizmat yo'llari xususida so'zlab berilib, yoshlik – bu o'qish va izlanish, bilim olib, kasb-hunar egallash pallasi ekani va undan unumli foydalanish zarurligi xususida ta'kidlandi. Shuningdek, bugungi kunda hukumatimiz tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun yaratilayotgan shart-sharoit va qulayliklar, harbiy xizmatning nufuzini yanada oshirish borasida amalga oshirilayotgan samarali chora-tadbirlar xususida ham so'z yuritildi.

Tadbir davomida harbiy texnika va qurol-aslahalar ko'rgazmasi tashkil etilib, o'quvchi-yoshlarga ularning qo'llanilishi va taktik-texnik tavsifi tushuntirib berildi.

Uchrashuvning badiiy qismida DXX Chegara qo'shinlari namunali ko'rgazmali orkestri hamda maktabning iqtidorli o'quvchi-yoshlaridan tashkil topgan badiiy jamoa ishtirokidagi konsert dasturi davomida ijro etilgan yurtga sadoqat, mehr-oqibat va insoniylikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

– Maktabimizda bunday uchrashuvlar tez-tez o'tkazilib turiladi. Bugun chegarachi harbiylarning ish faoliyati, xizmat jarayonida foydalanadigan texnikalari va qurol-aslahalari bilan yaqindan tanishdik. Menga ayniqsa, iste'fodagi podpolkovnik O'rozali Norqulovning fikrlari juda ham yoqdi. Ular bilan suhbatlashib, harbiylikka bo'lgan havasim ortdi. Kelgusida yurtimizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalaridan biriga o'qishga kirishni niyat qildim, – deydi yuqori sinf o'quvchilaridan biri Sarvarbek Azimov.



YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONI

Tadbir davomida talabalar tomonidan soha yo'nalishida ta'lim olishning o'ziga xosliklari, shuningdek o'zlari tahsil olayotgan universitetda yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar xususida ham qiziquvchilarga so'zlab berildi.

Bir so'z bilan aytganda, uch avlod vakillarini o'zida birlashtirgan mazkur uchrashuv, avlodlar vorisligini

ta'minlash bilan bir qatorda, kelajagimiz bunyodkorlarini yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashash va harbiy-vatanparvarlik ruhida kamolga yetishlarini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

✓ O'QUV YIG'INI

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, IIV Qorovul qo'shinlari qo'mondonligi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari ishtirokida "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibining axloqiy-ruhiy ta'minotini takomillashtirish yo'llari" mavzusida uslubiy-amaliy o'quv yig'ini o'tkazildi. O'quv yig'iniga 130 dan ortiq tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitseri jalb etildi.

KUCH TUZILMALARI BILAN HAMKORLIKDA



Yig'inning dastlabki kunida O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida vazirlik va idoralar rahbariyatidan tashrif buyurgan yig'in ishtirokchilari mavzuga doir amalga oshirilgan ishlar va tajribalar haqida ma'ruza qilishdi. Keyin Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahridagi harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil etilib, u yerda yurt o'g'lonlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar yaqindan tanishtirildi. "Adiblar xiyoboni"da harbiy xizmatchilar tomonidan buyuk sarkardalar, xalq qahramonlari, jadidchilar, yozuvchi va shoirlarni gavdalantirgan sahna ko'rinishlari hamda harbiy tarix muzeyidagi ekspozitsiyalar mehmonlarda ulkan taassurot qoldirdi. Harbiy qism madaniyat markazida ham harbiy orkestr jamoasi tomonidan ijro etilgan Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar barchaga birdek manzur bo'ldi.



O'quv yig'inining ikkinchi kuni Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent viloyati Olmaliq shahridagi dala-o'quv maydonida davom etdi. Unda asosiy e'tibor shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy ta'minotini tashkillashtirish, harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini shakllantirish, dala sharoitida madaniy hordiq va psixologik yengillashtirish hamda Qurolli Kuchlarning boshqa kuch tuzilmalarida axloqiy-ruhiy ta'minotni tashkillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan o'rtoqlashishga va ijobiy tajriba almashishga qaratildi.

Rejaga asosan, yig'in ishtirokchilari dala maydonida tashkil etilgan o'quv nuqtalarida psixologik trening va metodlarni amalda bajarib, "Ruhiy barqarorlikni shakllantirish yo'laklari"dan o'tishdi.

Tadbir yakunida uslubiy-amaliy yig'inni tashkil etishda yaqindan yordam bergan tashkilotchilarga tashakkurnomalar va esdalik sovg'alar topshirildi.

✓ SERJANTLAR FORUMI

QO'MONDONLIK MIQYOSIDAGI TADBIR

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahridagi harbiy qismda "Serjantlar forumi" bo'lib o'tdi.

Dastlab forum ishtirokchilari qo'mondonlikda yaratilgan shart-sharoitlar, "Adiblar xiyoboni", harbiy tarix va "Yangi O'zbekiston" muzeylari bilan yaqindan tanishdi. Harbiy xizmatchilar tomonidan millat oydinlari va buyuk ma'rifatparvarlarning hayotini aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari barchada katta taassurotlar qoldirdi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar uchun kitob yarmarkasi tashkil etildi.

Forumning tantanali ochilish marosimidan so'ng fan va ta'lim, sport sohalarida yuqori natijalarga erishib kelayotgan harbiy xizmatchilar hamda ularning farzandlari qo'mondonlikning tashakkurnomasi va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. Nafaqaga chiqqan, xizmat burchini o'tash davomida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va ularning yaqinlariga yuksak ehtiram ko'rsatildi. Vatan himoyachilarining sahna



ko'rinishlari hamda harbiy orkestr jamoasi va el suyg'an xonandalar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar barchaga birdek manzur bo'ldi.

Forumning navbatdagi kunida esa Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, poytaxtimizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, mutaxassis ofitserlar tomonidan mashg'ulotlar va treninglar o'tkazildi. Harbiy qismlardan tashrif buyurgan oddiy askar va serjantlar tarkibidan iborat harbiy xizmatchilarning faoliyati tahlil qilinib, istiqbolda amalga oshirilishi zarur rejalar va takliflar tinglandi.

Forum yakunida harbiy xizmatchilarning ma'naviy ozuqa va madaniy hordiq olishlari uchun poytaxtimizdagi drama teatrlariga tashrif uyushtirildi.

KORRUPSIYA

tanazzulga eltadi

Demokratik qadriyatlar qaror topib borayotgan bir vaqtda davlat xizmatchilari tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeyini suiiste'mol qilishi davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishi, obro'sizlanishi, natijada amaldagi hokimiyatga nisbatan norozilikka sabab bo'ladi. Korruptsiyaning rivojlanishi mamlakat tanazzuliga olib keladi.



Darhaqiqat, korruptsiya – ildizlari davlat xizmatini tashkil etishdagi nuqsonlar va davlat xizmatchilarining o'ziga xos psixologiyasiga borib taqaladigan ijtimoiy hodisa. Unga qarshi avvalo ma'muriy-huquqiy va tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari ko'rilib zarurligidan darak beradi.

Korruptsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma'muriy munosabatlari mohiyatini o'zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Korruptsiya davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida o'z xizmat mavqeyidan foydalanishida ifodalanadi. Korruptsiya deganda davlat xizmatchilari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida xalqdan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo davlat amaldorlarigina emas, balki davlat tashkilotida ishlamaydigan fuqarolar ham korruptsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari

bo'lishi, pora pul emas, balki ma'lum xizmat evaziga amalga oshirilishi mumkin.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Zotan, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo'lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

Jinoyatni jazolashdan ko'ra, uning oldini olish yuzasidan profilaktik tadbirlarning yo'lga qo'yilishi nechog'li oqilona samara berishi allaqachon o'z isbotini topgan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bugungi kunda mazkur yo'nalishda qonun hujjatlari loyihalarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish, soha mutaxassis va ekspertlarning fikrini o'rganish, amaldagi qonunlarni monitoring qilish va xorij tajribasini izchil tahlil qilish bo'yicha qator

ishlar olib bormoqda. Eng muhimi, davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalarning to'la-to'kis ijrosini ta'minlash maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda keng jamoatchilik orasida tushuntirish-targ'ibot ishlari o'tkazilyapti.

Bugungi kunda korruptsiyaga qarshi kurash maqsadiga faqat jinoyat-huquqiy vositalar bilan erishib bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. O'ylaymizki, bunday ma'naviy buzilish holatiga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki jamiyat va umuman barcha fuqarolar mas'ul. Shunday ekan mazkur illatning oldini olish va unga qarshi kurashda davlat va jamiyat, shu bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlarining birgalikdagi harakatigina samarali natijalarga erishishning eng maqbul yo'li hisoblanadi.

Adliya podpolkovnigi Nig'matjon KOMILOV, Mudofaa vazirligi korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi boshlig'i

✓ MA'NAVIYAT

Inson uchun ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabardir.

BIR YOQADAN BOSH CHIQARIB...



Surat tahririyat arxividan olindi

Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to'kilgan muqaddas dargoh, ajdodlar maskani, xalqi, uning tili, tarixi, madaniyati, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, kamol topgan zamin.

Vatan mehrini, uning mo'tabarligi-yu ulug'vorligini so'z bilan ifodalash qiyin. Har bir barkamol inson Vatan kamoloti uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi. Bu haqda Mavlono Fuzuliyning "Mening bitta hayotim bor, bordi-yu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham hammasini Vatan uchun sarflagan bo'lur edim", deb aytgan so'zlari har birimiz uchun bebaho o'g'itir.

Donolar aytganidek: "Insonning vafodorligi va sadoqati uning o'z Vatani uchun qayg'urishidan, umrining zoye ketgan lahzalaridan achinib, o'kinib yashashda bilinadi".

So'nggi yillarda yurtimizda davom etayotgan moddiy va ma'naviy taraqqiyot asosida tinchlikni saqlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqimiz turmush darajasini yuksaltirish borasida ulkan natijalarga erishilmoqda.

Albatta, har bir davlatning mustaqilligi, xavfsizligi, chegara hududlarining daxlsizligi va osoyishtaligini, avvalo Qurolli Kuchlar ta'minlaydi.

Bugun biz yaqin o'tmishimizni sarhisob qilar ekanmiz, hech ikkilanmasdan, milliy armiyamizni barpo etish, rivojlantirish jarayonlari O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritish bilan uzviy bog'langan, deb aytishimiz mumkin.

Milliy armiyamizning rivojlantirish masalasi davlat va jamiyat qurilishining g'oyat muhim, uzviy bir qismi bo'lib, bugungi kunda Qurolli Kuchlarning shakllanish tarixi, bugungi hayoti qanday darslik va kitoblar orqali qay yo'sinda ma'lumot berilayotgani ham doim e'tiborimiz markazida bo'lishi zarur. Shu bois o'z hayotini

Qurolli Kuchlar bilan bog'lagan safdoshlarimizni qadrlashimiz, ularning kelajagi yorug' bo'lishi uchun o'z yo'lini ochib berishimiz, buning uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.

Bugungi kunda zamonaviy armiyada xizmat qilish uchun o'g'lonlarimiz, nafaqat jismonan baquvvat, eng zamonaviy harbiy texnika va texnologiyalarning sir-asrorlarini puxta egallagan bo'lishi, ayni vaqtda yuksak aql-zakovati, o'z xalqiga sadoqati kabi oliyjanob xususiyat hamda fazilatlar bilan ajralib turishi lozim.

Buning uchun davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, harbiy sohada ma'naviyat darslarini chuqurroq o'rgatish, harbiy xizmatchilarimizning ong-u tafakkuriga Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini chuqur singdirishimiz kerak.

Harbiy xizmat jarayonida har bir askar, kursant va kichik komandirlar bilan alohida shug'ullanishimiz, ularni avvalo, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jasur ajdodlarimizning munosib vorislari, ona Vatanimizning haqiqiy Vatan himoyachilari etib tarbiyalashimiz darkor.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojaro va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Ana shunday g'oyat mas'uliyatli vaziyatlarda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash va himoya qilishda Qurolli Kuchlar, xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu haqiqatni hisobga olgan holda, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarning qudratini oshirish, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Qurolli Kuchlarning qo'mondonlik tarkibi, harbiy xizmatchilar, ayniqsa yosh komandirlar tarkibining professional tayyorgarligini oshirish milliy armiyamizni yanada rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Polkovnik Azizbek KAMILOV

Izchil islohotlar samarasi

23-noyabr – O‘zbekiston
Respublikasi mudofaasiga
ko‘maklashuvchi
“Vatanparvar”
tashkilotining 32
yilligi munosabati
bilan tashkilotning
Qoraqalpog‘iston
Respublikasi kengashi
tasarrufidagi Beruniy
tumani o‘quv sport-
texnika klubining yangi
qurib bitkazilgan binosi
foydalanishga topshirildi.



Tantanali tadbirda tashkilot markaziy kengashi raisi Husan Botirov va Beruniy tumani hokimi vazifasini bajaruvchi Umidjon Matrizayev ushbu muassasa tuman aholisi, ayniqsa yoshlarning harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishlari, sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari hamda ommaviy texnik kasb mutaxassisliklariga tayyorlanishlari uchun xizmat qilishini ishonch bilan ta'kidladilar.

Tadbir ishtirokchilari yangi bino ichkarisiga taklif qilinib, ularga innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan, yiliga 600 nafardan ortiq avtomototransport haydovchini tayyorlash quvvatiga ega sinfxonalar hamda sportning

texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari uchun mo'ljallangan seksiyalarning xonalari ko'rsatildi.

Tadbir doirasida faxriy qorovul va harbiy xizmatchilarning qo'l jangi bo'yicha ko'rgazmali chiqishlari hamda harbiy orkestr tomonidan kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Bu esa tadbir ishtirokchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Shuningdek, "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi Bektemir tumani o'quv sport-texnika klubi binosi hamda Olmazor va Sergeli tumanlari o'quv sport-texnika klublari avtodromlarining tantanali ochilish marosimlari o'tkazildi. Tadbirlarda tashkilot markaziy kengashi

rahbariyati, mahallalarda istiqomat qilayotgan
nuroniylar, yoshlar hamda bir qator davlat
hamda jamoat tashkilotlarining vakillari ishtirok
etdi.

Ayniqsa, tadbirlar mobaynida namoyish etilgan “Vatanparvar” tashkiloti tizimidagi “Avtokross”, “Motokross”, “Karting”, “Duatlon”, “Biatlon”, “Pnevmatik quroldan o‘q otish”, “Modelchilik” kabi sport seksiyalarining ko‘rgazmalari tashrif buyuruvchilarda katta taassurot goldirdi.

**O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti
matbuot xizmati**

QUTLOV

*O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm
viloyati kengashi jamoasi*

*barcha “Vatanparvar”chilarni, tashkilot a’zolarini va mehnat faxriylarini
23-noyabr — “Vatanparvar” tashkiloti kuni bilan samimiy tabriklaydi.*

*Yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdek ezgu
ishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!*



*O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Buxoro
viloyati kengashi jamoasi*

*soha xodimlarini 23-noyabr – “Vatanparvar”
tashkiloti kuni bilan muborakkob etadi.*

Muhtaram hamkasblar! Sizlarga sihat-salomatlik, farovonlik hamda Vatan ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lidagi samarali ishlaringizda ulkan zafarlar yor bo'lsin!



Poytaxtimiz ko'chalari bo'ylab "Yangi nafas" xalqaro marafoni o'tkazildi. Yugurish musobaqasida turli yoshdagi hamyurtlarimiz, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalaridan kelgan yengil atletika klubi vakillari, Rossiya, Hindiston davlatlarining mamlakatimizda ta'lim olayotgan talabalari va o'ttizga yaqin xorij davlatlari fuqarolari sovrinli o'rinlar uchun kurash olib bordi.

YOSH-U QARINI JAMLAGAN "YANGI NAFAS"



Yetti ming nafardan ortiq havaskor va professional yengil atletika ustasi 3 000 hamda 10 000 metrlik masofani bosib o'tdi. Yugurish bahslarida tegishli idoralar rahbarlari va raislari, vazir o'rinbosarlari ham qatnashgani alohida e'tiborga molik. Musobaqa yakuniga ko'ra, Mudofaa vazirligi sharafiga himoya qilgan harbiy xizmatchilar g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Harbiy xizmatchi ayollar o'rtasida: Marina Xmelevskaya (10 km, 1-o'rin); Maryamxon Tojiboyeva (10 km, 3-o'rin);

O'g'iloy Muzaffarova (3 km, 1-o'rin); Marjona Oqqo'ziyeva (3 km, 2-o'rin).

Harbiy xizmatchi erkaklar o'rtasida: Hasan Mirsoatov (3 km, 1-o'rin); Otabek Toshpo'latov (3 km, 2-o'rin).

Kursantlar o'rtasida: Asliddin Ravshanov (10 km, 2-o'rin); Javohir Xoliqberdiyev (3 km, 1-o'rin).

Shuningdek, Ilhom Nazarov (3 km, 1-o'rin), Oydinoy Ubaydullaxo'jayeva (10 km, 1-o'rin) ham yuqori natijalar bilan shohsupaga ko'tarildi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Oliy ta'lim, fan

va innovatsiyalar, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, Yoshlar ishlari agentligi, ishtirokchi shaharlarning hokimliklari, "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati hamda Yengil atletika federatsiyasi hamkorligida tashkil etildi.

Bu kabi marafonlar yurtimizning barcha viloyatlarida tashkil etildi va harbiy okrug mas'ullari hamda harbiy xizmatchilari unda faol ishtirok etdi.

Asror RO'ZIBOYEV

OBUNA – 2024

"Vatanparvar" gazetasi
nashr ko'rsatkichi – 114
"O'zbekiston armiyasi" jurnali
nashr ko'rsatkichi – 1273

– Biz "Vatanparvar"ni tanladik. Siz-chi?

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot

QUYIDAGI MASALALAR BO'YICHA MUHOJATLARINGIZ BO'LSA, QO'NG'IROQ QILING:



- psixologik qo'llab-quvvatlash;
- oilaviy munosabatlar;
- shaxs sifatida rivojlanish;
- psixologik maslahat olish;
- nizoli masalalar bo'yicha psixologik yordam ko'rsatish;
- bolalar psixologiyasi;
- stressli vaziyatlar.

HAL QILIB BO'LMAYDIGAN MUAMMO YO'Q, HAR QANDAY VAZIYATDAN CHIQISHNING MUNOSIB YO'LI BOR!



SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR MUASSIS O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI www.mudofaa.uz	Tahririyat kengashi: general-mayor Hamdam Qarshiyev polkovnik Otabek Yuldashev polkovnik Alisher Boboxonov Maqsd Abilov Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.	Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi: podpolkovnik To'lg'in Jumanazarov ISSN 2010-5541 Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan. Telefonlar: kotibiyat: 71 260-36-50 buxgalteriya: 71 260-35-20 yuridik bo'lim: 71 260-29-41 faks: 71 260-32-29	Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Hojimurodova Sahifalovchi: Begali Eshonqulov Musahhih: Zabo Sariyeva Buyurtma: V-5646 Hajmi: 6 bosma taboq Bichimi: A3 Adadi: 31 047 nusxa Bosishga topshirish vaqti: 14:00 Topshirildi: 14:30 Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.	Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan. Nashr ko'rsatkichi: 114. Bahosi: kelishilgan narxda. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy. 1 2 3 4 5 6 Manzilimiz: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.
--	--	--	---	--